



JADIDLAR



ABDULHAMID
Chopon

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Jadidlar



ABDULHAMID CHO'LPON

YOSHLAR NASHRIYOT UYI
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(5O')

Q 80

Quronov, Dilmurod

Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. [Matn]: risola./
D.Quronov. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
— 160 b.

Loyiha rahbari:

Alisher Sa'dullayev

Muallif:

Dilmurod Quronov,

filologiya fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir:

Bahodir Karimov,

filologiya fanlari doktori, professor

Ijodiy guruh: **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

XX asr o'zbek adabiyotidagi ayrim yangilanishlar Cho'lpon faoliyati bilan bog'liq. Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning ushbu risolasida otashin shoir, iste'dodli adib Abdulhamid Cho'lponning hayoti va ijodi, xususan, she'riyati hamda nasriy asarlari muhokama qilinadi.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-6682-4-9

© **D.Quronov,**

© **Yoshlar nashriyot uyi, 2022**



Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor, bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q.

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



ADIB HAYOTI

Andijonning Qatorterak mahallasida, Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li xonadonida 1897-yilda bir o'g'il dunyoga keldiki, uning manglayiga XX asr o'zbek she'riyatining porloq yulduzi bo'lishdek yuksak saodat va noraso tuzum qurboni bo'lishdek fojia xat qilingan edi. Bo'lg'usi shoirning otasi elda Sulaymonqul bazzoz nomi bilan tanilgan savdogar, o'z davri-ning o'qimishli, "eski madrasani bitirgan, har kuni gazeta o'qib, olam ishlaridan xabardor bo'lib turgan"¹ taraqqiyparvar kishilardan edi. Shu bois o'sha vaqtdagi eng ilg'or ijtimoiy harakat — jadidchilikka xayrixoh bo'lgan. Uning Qo'qonda 1914-yildan chop etilgan

¹ M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari. — Toshkent, 1964. 129-bet.



“Sadoyi Farg‘ona” nomli jadid gazetasining Andijondagi “obuna va e‘lon qabul qiladigan vakili” bo‘lib turgani ham shundan dalolat beradi. Sulaymonqul bazzozning gazeta endigina oyoqqa turayotgan vaqtda uni yo‘lga solishga ko‘maklashgan kishilardan ekani jadidchilikka fikrdagina emas, amalda ham xayrixoh bo‘lgani ni ko‘rsatadi. Shunga tayanib, ayrim manbalardagi Cho‘lpon bilan otasi orasida jiddiy ziddiyat bo‘lgani haqidagi ma‘lumotlar shubha ostiga olinishi mumkin. Masalan, yozuvchi V. Yan kundaliklarida 1933-yilda Cho‘lponning shunday hikoya qilib bergani qayd etilgan: “yoshlik chog‘imda Farg‘onada gazmol bilan savdo qiluvchi otam musulmonchilikka haddan ziyod berilgan bo‘lib, mullalar bilan do‘st tutingan edi. U meni ham mullavachcha qilib o‘stirish niyatida tahsil ko‘rish uchun madrasaga bergan... Ammo mudarrislik qilish o‘rniga men milliy o‘zbek yozuvchisi bo‘lishga ahd qildim, otamdan ham, mullalardan ham



qochib Toshkentga bordim va u yerda she'rlar, hikoyalar yozib, jurnallarga yubordim"². Holbuki, 1914-yilning aprelida, Cho'lpon otasi bilan "Sadoyi Farg'ona"ning Andijondagi vakili bo'lib turgan³ vaqtda, Toshkentda chop etilgan "Sadoyi Turkiston"da uning "Turkistonli qardoshlarimizg'a" nomli she'ri va "Qurboni jaholat" hikoyasi e'lon qilingan. Demak, Cho'lpon qarshisida milliy yozuvchi bo'lmoq uchun Toshkentga otasidan qochib borish zarurati bo'lmagan. Xo'sh, unday bo'lsa, nima uchun shoir bunday ma'lumot bergan? Shu uchunki, V.Yan bilan "sinfy mansublik" masalasi ancha qaltis vaqtda suhbatlashgan Cho'lpon anketalar to'ldirish uchun tarjimayi holini "zamonabop" tahrir qilishga zarurat sezgan bo'lishi ehtimol.

Sulaymonqul bazzoz o'g'lining "zamo-

² Ko'chirma manbasi: Karimov N. Cho'lpon. — Toshkent: Fan, 1991, 11-bet.

³ Sadoyi Farg'ona. 1914-yil, 6-son.



na iqtizosincha” bilim olishini istadi, zarur shart-sharoitlar yaratib berdi. Bo’lg’usi shoir 1913-yildayoq “turk tarixiga doir asarlarini o’qib chiqqan, so’ngra “Turk yurdi” va “Sayra” kabi turkchilik nashrlarini kuza-tar ekan”⁴. M.Muhammadjonov 1916-yilda Cho’lpon bilan ilk bor uchrashganini eslab: “Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o’qir edi. Tatariston, Ozarbayjon, Hindis-tonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo’lib, ruscha gazetalarni ham o’qib turar edi”⁵, — deydi. Shuncha gazeta-jurnallar, ayniqsa, chet elda chiqadigan nashrlar obunasi anchagina mablag’ni talab qiladi, ya’ni Sulay-monqul bazzoz o’g’lining bilim olishi uchun molini ayamagan. Xullas, Cho’lpon majburiyat orqasida V.Yanga aytgan gaplarni haqiqat de-

⁴ Ahmad Zaki Validiy To’g’on. Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi. 1-jild. Sharqiy va G’arbiy Turkiston (2-nashri). — Istambul, 1981.

⁵ Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. — Toshkent, 1964. — B.30.



sak, qator mantiqqa zid holatlar yuzaga keladi. Xo'p, Sulaymonqul bazzozni o'g'lini mudarris qilaman deya qattiq turgan mutaassib ota deb tasavvur qilaylik. Shunday bo'lgan taqdirda u o'g'lini "kufr" nashrlarga obuna qildirarmidi?! O'g'lining ruscha mutolaa qilishiga, ruscha tahsil olishiga yo'l qo'yarmidi?! Holbuki, Cho'lpon nafaqat o'zi, balki jigarlarining yangicha tahsil olishlari haqida ham qayg'urgan: "yetti yashar singlisini o'z mahallasining bir chetida ochilgan yangi usul tatar qizlar maktabiga o'qishga bergan edi"⁶. Oilada o'zini erkin his qilmasa, otasi mutaassib bo'lsa, bunga jur'at qila olarmidi?! Ko'rinadiki, V. Yanga aytilgan gaplarni haqiqat deb qabul qilish ham unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Cho'lponning madrasada, rus-tuzem maktabida tahsil olgani aytiladi. Biroq uning qachon va qaysi maktab yo madrasada, kimlar-

⁶ Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. — Toshkent, 1964. — B. 30.



ning qo'lida tahsil olgani haqida ma'lumot yo'q. Xususan, Andijondagi rus-tuzem maktabiga doir arxiv hujjatlarida Cho'lponga oid hech qanday ma'lumot topilmadi. Shuning uchun bo'lg'usi shoir, M. Muhammadjonov aytganidek, ruscha tahsilni xususiy tarzda olgani haqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Nima bo'lganda ham, 1919-1920-yillarga oid dastxatlar Cho'lpon rus tilini yaxshi egallaganini ko'rsatadi. Maqolalaridan birida Cho'lpon o'zi salbiy munosabatdagi odamga "miyasi rus-tuzem maktabida churigan" deya ta'rif beradiki, bu ham uning "ruscha xususiy ta'lim olgan"ligi foydasiga dalolat qiladi. Xullas, Cho'lponning zamonasiga ko'ra chuqur va keng bilim egalashida sabot bilan mustaqil tahsil olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'rinadi.

Sulaymonqul bazzoz o'g'lini ham savdo ishiga jalb qilmoqqa harakat qilgan — gavjum joyda do'kon ochib bergan, Cho'lpon ham qobil farzand o'laroq do'konni yurgizgan, bi-



roq ko'ngliga o'tirishmaganidan bo'lsa kerak, ishi hech yurmagan. Sababi, Cho'lpon ko'ngli boshqa — u ich-ichida ma'rifatchilik yo'lini tanlagan, o'zini shu ishga bag'ishlamoqqa qaror berib bo'lgan edi. Yana ham aniqrog'i, u millat taraqqiysiga qalami bilan, adabiyot vositasida xizmat qilmoqqa qasd etgan.

Cho'lpon o'n yetti yoshidan jadid nashrlari bilan aloqa bog'laydi, ularda avvaliga kichkina xabarlari, so'ng nazmiy va nasriy mashqlari, publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. E'tiborlisi, u nafaqat Turkiston, balki Qrim, Tatariston, Boshqirdistonda chop etilgan gazeta-jurnallarda ham qatnashishga harakat qilgan.

Cho'lponning matbuotda chop etilgan ilk asari "Sadoyi Turkiston" ning 1914-yil 3-sonidan joy olgan "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ridir. Shundan so'ng "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida birin-кетин "Qurboni jaholat", "Doktor Muhammadi-

yor” nomli hikoyalari, “Bahor avvallari” etyudi, “Adabiyot nadir?” va “Muhtaram yozg‘uchilarimizga” nomli adabiy-tanqidiy, “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik” hamda “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” nomli publitsistik maqolalari e‘lon qilindi. Albatta, mazkur asarlar mukammallikdan ancha yiroq, biroq adibning ijodkor va shaxs sifatidagi o‘lishini kuzatish uchun g‘oyat muhim.

1914-1915-yillardagi “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarini bilan hamkorlik Cho‘lpon uchun qo‘shimcha mashg‘ulot edi, asosiysi esa savdo ishi bo‘lgan. Ushbu nashrlar to‘xtagach, 1915–1917-yillarda Andijonda chop etilgan “Turkestanskiy golos” gazetasi tahririyatida ishlaganki, uning professional jurnalistik faoliyati boshlanishini shundan belgilash joiz.

Cho‘lpon 1917-yil fevral inqilobini zo‘r quvonch bilan kutib oladi. O‘sha kunlar Cho‘lpon g‘oyat ko‘tarinki ruh bilan yashaydi,



yangi shaharda bo'lgan mitingda otashin nutq so'zlaydi. Yuzaga kelgan sharoitda demokratik yo'l bilan mustaqillik olish imkoni yuzaga kelayotganidan ruhlangan "yoshlar Kerenskiy hukumatini mustahkamlamoq, milliy ozodlik olmoq yo'lida taraddudga tushib qoldilar"⁷. Cho'lpon mahalliy boshqaruv idoralariga, Ta'sis majlisiga o'tkaziladigan saylovlarga jiddiy e'tibor bilan qaragani shu ishonchdan. Ahmad Zaki Validiy guvohlik berishicha, Cho'lpon saylov mavzusida doston ham yozib, unda o'z hammaslklarining dasturini bayon qilgan. Bunday sharoitda keng omma bilan ishlash, targ'ibot muhimligini yaxshi bilgan Cho'lpon Eski shaharda may oyidan ish boshlagan bepul qiroatxona noziri bo'lib ishlaydi.

Cho'lpon muxtoriyatchilik harakatida faol qatnashgan, hammaslklari bilan Turkistonning turli shaharlariga borib targ'ibot ish-

⁷ Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. — Toshkent, 1964, 130-bet.

lari bilan shug'ullangan⁸. 1917-yil avgustida "Hurriyat" gazetasida "Qofqoziyaga ketgan Farg'ona hay'atidan" nomli ochiq xat e'lon qilinadi. Xatga imzo chekkan uch kishining biri, uslubiga qaraganda asosiy muallifi ham Cho'lponning o'zi ko'rinadi. Qofqoziya turklari bilan aloqa bog'lash uchun yuborilgan delegatsiya tarkibida bo'lishi uning muxtoriyatchilik harakati faollaridan bo'lganini tasdiqlaydi. Xatda safar maqsadi: "Munday zamonda so'nggisidan (*mustamlakadan*. — *D.Q.*) qutulish uchun har tarafda tarqalg'on turklarning, Turon bolalarining birlashishlari lozim", — deb tushuntiriladi. Albatta, turkchilik g'oyalarining bu qadar dolzarblashuvi muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan belgilanadi: jadidlar Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy xalqlar birlikda harakat qilsagina mustaqillikka erishishlari mumkin, deb hisoblaganlar. Shu bois ham xatda: "Qofqozda biz-

⁸ Sharq yulduzi. 1993, 5-6-sonlar, 138-bet.

dan, Turkistonda Qofqozdan, Volgabo'yidan bizda, bizdan Volgabo'yida hay'atlar, vakillar bo'lishi kerak. Boshqa tarafdin kelurg'a hozir vaqt nomunosibdur", — deyiladi. Ko'ramizki, bu o'rinda Turonzaminni turkiy xalqlarning o'zlari boshqarishlari lozim degan fikr yotadi.

1917-yilning 26—29-noyabrida Qo'qonda IV Turkiston umummusulmon syezdi Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi. Cho'lpon buni zo'r quvonch bilan qarshiladi, "El bayrog'i" gazetasida muxtoriyat gimni deyishga arzigulik "Ozod turk bayrami" she'rini e'lon qildi. Mazkur she'r ham turkchilik g'oyalari mujassami deb qaralishi mumkin. Cho'lpon muxtoriyat mustaqillik yo'lidagi ilk qadam ekanligini, yurtiga egalik qilishdan manfaatdor kuchlarga g'animlik qilishlari tayinligini teran his qiladi. O'sha kuchlarning shashtini pasaytirish, muxtoriyatning ravnaqi-yu tom ma'nodagi istiqbolga aylanishi uchun boshqa turkiy xalqlar ham shu yo'ldan borishlari, baqamti harakat

qilishlari lozim, deb biladi. Ayni qarashlarning amaliy tatbiqi o'laroq Cho'lpon 1917-yil adog'ida Orenburgga jo'nab, u yerda Boshqirdiston hukumatini oyoqqa turg'azish ishida qatnashadi, hukumat raisining kotibi vazifasida ishlaydi. Adabiyotshunos N.Karimov bergan ma'lumotga ko'ra, Cho'lpon sal ilgariroq Mohiro'ya ismli tatar qizga uylangan bo'lib, safarga kelin-kuyov birga o'tlanishgan⁹.

Cho'lponning Orenburg davri faoliyati hali yaxshi o'rganilgani, bu davrda yozganlari to'planganicha yo'q. Shunga qaramay, Orenburgdagi faoliyati davomida qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani kuzatiladi. Cho'lpon muxtoriyatchilik harakatiga butun vujudi bilan berilgan bir paytda amalga oshgan Oktabr to'ntarishiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor bermagan, matbuotda unga hech bir munosabat bildirmagan edi. Qo'qonda 1918-yil fevralida sodir etilgan dahshatli xunrezliklarning bevosita sho-

⁹ Karimov N. Cho'lpon. — Toshkent, 1991. 13-bet.



hidi bo'lmagani uchun ham u muxtoriyatning mag'lubiyati sabablarini ehtirosga berilmasdan, atroflicha va chuqur mulohaza qilish imkoniga ega edi. Rasmiy xizmatda bo'lgan Cho'lpon yangi hukumatning ko'plab hujjatlari bilan tanishgan, uning istiqboldagi rejalari o'zining niyatlariga ko'p jihatdan o'xshashligini ko'rgan. Ikkinchi tomondan, Qo'qon muxtoriyatining qonga botirilishi — sho'rolar Turkistonga chin ma'noda mustaqillik berish fikridan yiroqligiga adibni ishontirgan edi. Shunga ko'ra, Cho'lpon oktabr inqilobini butunicha qabul qilolmaydi, zero, unda milliy ozodlik orzularidan batamom kechishga to'g'ri kelur edi. Ayni chog'da, bundan adib sotsialistik g'oyalarni butkul inkor qilgan degan fikr ham kelib chiqmasligi kerak.

Cho'lponning Orenburgdan qachon qaytganini hozircha hujjatli asosda aniqlangani yo'q, turli ma'lumotlar bor. Jumladan, N.Karimov 1918-yil avgust-noyabr oylarida Uyg'ur boshchiligidagi K.Marks nomli o'zbek dramtrup-

pasi agitpoyezdda gastrolga borgani, uning tomoshalarida Cho'lpon ham qatnashgani haqida ma'lumot beradi¹⁰. Shu bilan birga, Cho'lpon 1918-yilda Andijonda o'qituvchilik qilgani haqida anketa ma'lumoti ham bor¹¹. Agar Validiy boshqargan Boshqirdiston muxtoriyat hukumati 1918-yil fevralida tugatilib, o'zi bolsheviklar tomonidan hibsga olingani e'tiborga olinsa, Cho'lponning shundan keyin, ya'ni yilning birinchi yarmida qaytgan bo'lishi ehtimoli katta. Andijon viloyat arxividagi hujjatlarda, anketadagidan farqli o'laroq, Cho'lponning maorif sohasidagi faoliyati 1919-yildan boshlab ko'rinadi. Taxminimizcha, Cho'lpon Orenburgdan 1918-yil o'rtalariga yaqin qaytib kelgan. Siyosiy kurash maydonidagi jadidlarning bu vaqtga kelib o'zgargan taktikasi haqida

¹⁰ Karimov N. Cho'lpon. — Toshkent, 1991. — B. 13-14.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyati filiali. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 211-ish, 86-bet.



H.Olimjon: "Siyosat bobidan surilib chiqqan, Fevral inqilobi davridagi jonsarak urinishlari xayolga aylangan o'zbek burjua ziyolilari butun kuchni madaniy-adabiy maydonga tashladi. Ular, taxminan, butun gazeta va jurnallarga o'rnashib oldilar. Maktab-maorifning asosiy shoxobchalari ularning qo'lida qoldi. Adabiy maydon va adabiy tashkilotlarga o'z changallarini solib, ularni millatchilik mafkurasiga xizmat qildirdilar"¹², deb yozgan edi.

Hammaslamlari kabi, yurtiga qaytgan Cho'lpon ham maorif sohasida ish boshlaydi: maktabda o'qituvchilik qiladi. Keyinroq, 1919-yilda u Andijon uyezd maorif sho'basida, Farg'ona muzofoti turk muallimlari kursida ishlagan. 1919-noyabr oyida Toshkentga xizmat safariga yuborilgan Cho'lpon Musbyuro ixtiyorida qoldiriladi, "Ishtirokiyun" gazetasini tahririyatida ishlaydi. 1919–21-yillarda

¹² Olimjon, H. Asarlar. Besh jildlik. 5-jild. — Toshkent, 1972. 111-bet.

RosTANing Toshkent Eski shahar bo'limiga rahbarlik qiladi. 1920-yil yoz mavsumida RosTANing Andijon eski shahar bo'limini boshqarib, ayni paytda 6 oylik tayyorlov kursida ham dars beradi. 1920-yilda "Turon" teatri direktori vazifasida ishlaydi. Shu vaqtda yana O'zbek ilmiy hay'ati raisi sifatida ham faoliyat olib borgan. 1921-1922-yillarda "Buxoro axbori" gazetasi muharriri, bir muddat Buxoro jumhuriyati davlat nashriyoti mudiri bo'lib turgan. 1923-yilda Andijonda "Darxon" gazetasi tahririyatida, gazeta to'xtagach, bir muddat Andijon uyezdi harbiy inqilobiy qo'mitasida, Vaqf sho'basida ishlagan. 1923-24-yillarda "Farg'ona", "Turkiston" gazetalari muxbiri sifatida faoliyat yuritgan.

Biz sanalarni shunchaki qayd etyamiz. Holbuki, mazkur har bir sana ortida mashaqqatli mehnat va keskin kurashlar, ijodiy zafarlar quvonchi va mag'lubiyat alami, yuksakka parvoz qilgan umid va

yurak-bag'irni ezuvchi tushkunlik — hamma-sidan bor. Sanalarning tig'izligiga e'tibor berilsa, Cho'lpon chin ma'noda "qaynoq faoliyat" olib borganiga amin bo'lish mumkin. Uning iqtidori suv va havodek zarur, uning kabi ko'p qirrali faoliyatga qobil xodimlar kam — bir vaqtning o'zida bir necha vazifani bajarishiga to'g'ri kelgan. Eng muhimi, shu ishlarni bajarish bilan birga badiiy ijoddan ham to'xtamagan: she'r, hikoya va maqolalari chop etilib, pyesalari sahnalashtirib turilgan.

20-yillarda Cho'lpon shoir sifatida shuhrat qozondi, yangi o'zbek she'riyatining chinakam lideriga aylandi, e'tirof etildi. Davr matbuotida e'lon qilingan va "O'zbek yosh shoirlari" jamoa to'plamiga kirgan she'rlari, "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1922), "Tong sirlari" (1926) to'plamlari o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Shu yillarda markaziy matbuotda Cho'lpon she'riyati haqida iliq fikrlar aytildi: Z. Bashir, A. Sa'diy, V. Mahmud kabi

munaqqidlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi.

O'zbek teatr san'ati uchun malakali aktyorlar tayyorlash maqsadida Moskvadagi "Stalin nomig'a ochilg'on o'zbek bilim yurti" qoshida 1924-yilda O'zbek drama studiyasi tashkil qilingan edi. Cho'lpon unda ochilgan vaqtdan boshlab ishlagan, degan fikrlar ham bor¹³. Biroq Cho'lpon she'rlari va maqolalari yozilgan vaqtlarga e'tibor qilinsa, uning 1925-yil yoziga qadar O'zbekistondan chetga chiqmaganligi anglashiladi. "Yer yuzi" jurnalining 1926-yil 12-sonida e'lon qilingan "Moskvadagi dram-studiyamiz" nomli maqolasini o'qiganda ham Cho'lpon studiyaning birinchi yil faoliyati haqida bevosita ishtirokchi sifatida hikoya qilmayotgani anglashiladi. Shularga tayanib, Cho'lpon Moskvaga 1925-yil yozining oxirlarida borgan, studiyaning ikkinchi o'quv yi-

¹³ Sharafiddinov O. Cho'lpon. — Toshkent, 1991. 14-bet; Karimov N. Cho'lpon. — Toshkent, 1991. 21-22-betlar

lidan boshlab ishlagan degan to'xtamga kelish mumkin.

Teatr san'atiga ayricha mehr bilan qaragan Cho'lpon yosh iste'dodlar sahna san'ati sirlarini egallashlari yo'lida astoydil xizmat qildi. Adib studiyachilar uchun Gogolning "Revizor", Gotssining "Malikayi Turandot" kabi asarlarini tarjima qildi, repertuarni milliy asarlar bilan boyitish maqsadida "Yana uylanam", "Qorovul uyqusi" kabi pyesalar yozdi. Moskva davri Cho'lponning ijodiy o'sishida katta ahamiyatga molik bo'ldi. Studiya ishida faol qatnashgan taniqli aktyor-u rejissyorlar bilan yaqin aloqa bog'lagan adibga sahna san'atining qorong'u tomonlari ochildi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Cho'lpon o'zining 1921-yildayoq sahnalashtirilgan "Yorqinoy" pyesasi haqida "xomroq bo'lgani uchun yana ishlanmakchi" ekanini yozadi. Yuqoridagi maqoladan ko'rinishicha, u "Uzunquloq bobo" pyesasining studiya repertuariga kirishidan

umidvor bo'lgan. Demak, Cho'lpon har ikki asarni ham yetuk mutaxassislar ko'rigidan o'tkazishga tayyorlagan, ularni jiddiy qayta ko'rib chiqqan bo'lishi tabiiy. Qayta ishlangan "Yorqinoy" ning 1926-yilda alohida kitobcha holida nashr etilishi ham fikrimizni dalillaydi.

Cho'lpon Moskvadaligida L.Sverdlin, V.Kachalov kabi mashhur rus aktyorlari bilan yaqin aloqada bo'lgani ma'lum. Professor O.Sharafiddinov esa uning rus adib va shoir-lari bilan ham aloqada bo'lganini taxmin qiladi. Bu fikrda to'la asos bor. Chunki Meyerxold teatridagi ijodiy tajribalarni qiziqish bilan ku-zatgan Cho'lpon adabiy jarayon yangiliklariga qiziqmasligi, turli adabiy kechalarga bormasligi mumkin emas edi. Afsuski, adibning Moskva-dagi hayoti haqida ma'lumot beruvchi ishonch-li manbalar juda ham kam, ko'pincha shu xil taxminlarga ham tayanishga to'g'ri keladi. Moskvada ekanida Cho'lponning tarjimachilik sohasidagi faoliyati, ayniqsa, sermahsul bo'ldi.

Studiya uchun o'girilgan asarlardan tashqari mutarjim o'nga yaqin hikoyalarni tarjima qilib, kichik-kichik kitobchalar holida nashr ettirdi. Ayni paytda, Cho'lpon o'zining she'rlari-yu maqolalari bilan O'zbekiston matbuotida ham faol qatnashib turdi.

Moskva dramstudiyasining ilk bitiruvchilari bilan birga 1927-yil bahorining oxirlarida Cho'lpon yurtiga qaytdi. Studiyachilar poytaxt Samarqand sahnalarida bir qator hisobot spektakllarini namoyish qilib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldilar. 1927–1931-yillarda Samarqandda yashab, O'zbek davlat teatr truppasida adabiy emakdoshlik qildi. Shuningdek, "Zarafshon" gazetasi tahririyatida ham ishladi (1927–1928).

Adabiy tanqidchilik Cho'lponning yurtga qaytishini o'ziga xos "sovg'a" bilan kutib oldi. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1927-yil 14-fevral sonida Ayn (Olim Sharafiddinov)ning "O'zbek shoirlari. Cho'lpon" nomli maqolasi

bilan boshlangan tanqid “toshbo‘roni” tobora avj oldi. Afsuski ko‘proq siyosiy xarakter kasb etgan mazkur munozaralarda “shoir ijodini o‘zgacharoq yondashib tekshirish lozim”, degan fikrni o‘tkazishga intilgan oybeklar emas, “Cho‘lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir” deya hukm chiqarganlarning qo‘li baland keldi¹⁴. Eng yomoni, rasmiy doiralar ham keyingi qarashni yoqladi. Xususan, O‘zR KP Markazqo‘mi birinchi kotibi A.Ikromov shu yil oktabr oyida to‘plangan O‘zbekiston madaniyat xodimlari qurultoyida so‘zlagan nutqida Olim Sharafiddinov “Cho‘lpon ijodining g‘oyaviy tuturiqsizligini to‘g‘ri ta’kidlagan”, “mafкура sohasida shunday sog‘lom tanqid bo‘lishi zarur” deya ta’kidladi. Bu gaplardan ruhlangan madaniyat xodimlari Cho‘lpon ijodini g‘oyaviy tomondan zararli deb topdilar, madaniyatimiz ravnaqiga

¹⁴ Bu haqda batafsil ma’lumot olish uchun qarang: Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. — Toshkent, 1994.



ulkan hissa qo'shgan shoirni qurultoydan haydab soldilar. Cho'lpon o'shandayoq ma'nan o'ldirilgan edi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ahvolning bag'oyat keskin tus olayotganini teran anglagan Cho'lpon qurultoy rayosat hay'ati nomiga "E'tiroz" yozib, "tushunmaslik" orqasida yo'l qo'ygan xatolariga, ya'ni shu el, shu yurt tashvishi bilan yashaganiga "tavba qiladi", butun kuch-quvvatini "xatolarini ishchi-dehqon ko'nglidan ketkazishga sarflash"ga va'da beradi.

Cho'lpon "E'tiroz"da endilikdagi faoliyati uchun "o'zi sevgan teatr sohasini olishi", ishida partiya organlarining qarorlarini dastur qilishga va'da bergan edi. Darhaqiqat, 1928–1934-yillar oralig'ida chiqqan matbuot nashrlarida Cho'lpon asarlari deyarli ko'rinmaydi, hatto "xatolarini ishchi-dehqon ko'nglidan ketkazish" uchun yozilgan murosasoz she'rlari ham bosilmadi. Sahna yuzini ko'rgan "Mush-tumzo'r", "O'rtoq Qarshiboyev" kabi pyesa-

laridan ham g'oyaviy nuqsonlar izlab topildi. Qizig'i, asarlari bosilmagani bilan, uning nomi-yu "cho'lponchilik" atalmish soxta adabiy-siyosiy istiloh gazeta-jurnal sahifalaridan deyarli tushmay qoldi. Original asarlari bilan matbuotda qatnashishimkonidan mahrum etilgan Cho'lpon ko'proq tarjima sohasida ishladi: Turgenev, Chexov, Gorkiy va Andreyev kabi yozuvchilarning asarlarini tarjima kildi.

Har jihatdan ezilgan shoir, o'zining tergovda bergan ma'lumotiga ko'ra, F.Xo'jayevga murojaat qilishga majbur bo'ladi: "1931-yilda meni matbuotda burjua millatchisi, aksilinqilobchi sifatida, ayniqsa, faollik bilan fosh etganlarida, men shikoyat qilib va yordam so'rab Fayzulla Xo'jayevning huzuriga bordim. Fayzulla Xo'jayev meni yupatib, 300 so'm pul berdi va vaqtincha Toshkentdan chiqib, Moskvaga borishimni maslahat qildi hamda jamoatchilik meni xiyla yoddan chiqariganida qaytib kelishimni buyurdi"¹⁵. Cho'lpon

¹⁵ Karimov N. Cho'lpon... 27-bet.



Moskvaga jo'nab, 1931–1934-yillarda Ittifoq Xalq komissarlari sovetida tarjimon bo'lib ishladi.

1934-yil oxirida Toshkentga qaytib, mash'um 1937-yilning iyulida hibsga olinguniga qadar Hamza teatrida adabiy emakdosh, "Mushtum" va "Guliston" jurnallarida adabiy xodim sifatida faoliyat olib bordi.

O'n yil muttasil tuhmat-u malomatlarga nishon bo'lib yashagan shoir 1938-yil BE-SHINCHI OKTABRda o'limga hukm qilinib, TO'RTINCHI OKTABRda otib tashlandi. Qarangki, voqelikka munosabatini umr bo'yi ramzlar qatiga yashirib o'tgan shoir hayotining so'nggi sahifasi ham ramzlidek. Zero, u nafaqat ijodkorni, umuman, insonni bir chaqaga ham olmaydigan — insonni hech qanday sudlovsiz qatl etib, shundan so'nggina bamisoli bir buyum kabi "hisobdan chiqarib" qo'yishdan tap tortmaydigan tuzumga toabad tavqi la'nat aytib turajak.

IJODI



ILK IJODI



Bo'lg'usi adib-ning dunyoqarashi o'zi o'qigan gazeta-jurnallar, aniqrog'i, jadidchilik g'oyalari ta'sirida shakllandi: u o'zini qurshab turgan ijtimoiy muhitni,

o'zi guvohi bo'lib turgan voqea-hodisalar mohiyatini jadidchilik ruhidan kelib chiqib tushunadi va baholaydi. Shu bois Cho'lpon adabiyotdagi ilk qadamlaridanoq ijodiy kredosini aniq belgilab, butun kuch-g'ayratini "millatni uyg'otish" maqsadiga sarf etish, bu yo'lda badiiy so'zni vosita qilishga qaror bergan edi. Uning matbuotdagi ilk chiqishlari qatorida sanaluvchi "Adabiyot nadir?" va "Muhtaram

yoʻzgʻuchilarimizga” nomli moʻjaz maqolalari shundan dalolat beradi.

“Adabiyot nadir?” nomli maqolasida soʻz sanʼatining xossalaridan soʻz ocharkan, Choʻlpon adabiyotning ijtimoiy hayotdagi oʻrni, vazifalariga diqqat qiladi va uqdiradiki: “Adabiyot yashasa, millat yashar. Adabiyoti oʻlmagʻon va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagʻon va adiblar yetishtirmagʻon millat oxiri bir kun hissiyotdan, oʻydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz boʻlur”. Choʻlpon tushunchasidagi adabiyot millatni inqirozdan saqlashi, uning taraqqiysiga xizmat qilishi darakor. Muallif ommaning adabiyotga befarq, hatto oʻtmishda yaratilgan “taʼrixi umumiylarni oʻqub anglamoqdin” yiroq ekanligidan tashvish chekadi. Ovroʻpo xalqlarining adabiyotga tamom oʻzgacha munosabati haqida havaslanib yozadi, ularning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot masalasida ilgari ketishi omillaridan biri-

ni shunda ko'radi. Cho'lpon havasli nigohini Ovro'podan yurtiga o'girsaki, bunda ulamo-yu eshonlar "to'n kiymak", avom "choyxonalarga chiqub choy ichmak", ziyolilar esa "Ovro'pa kiyimliklari-yu qiymatlik papiro'slar" dan zavq olishayotir. Cho'lpon shu ma'naviy qashshoqlanish sabab "kundan-kunga ruhimiz tushub, keladurg'on istiqbolimizga umidsiz qaraymiz", deb hisoblaydi. Maqolada adabiyotning "o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi" sifatida zarur ekani uqdiriladi, pirovardida, "Adabiyot o'quyluk, adiblar yetishturayluk!" degan chaqiriq yangraydi. Cho'lpon ayni paytda "agarda "bayoz" va bema'ni bir-ikkita kitoblar bilan qolsak" inqirozga uchraymiz deya ogohlantiradi ham. Ya'ni, u nazarda tutayotgan adabiyot — yangicha adabiyot, shu bois ham "adiblar yetishturayluk!" chaqirig'iga alohida urg'u beradi, adiblar yetishtirish zarurligini qayta-qayta takrorlaydi.

Xo'sh, Cho'lpon qanday adabiyotni nazarda tutadi? Bunga "Muhtaram yozg'uchilarmizg'a" nomli maqoladan javob topamiz. Maqolada Cho'lpon qalam ahlini "millatning eng tanqid qilinaturg'on o'rinlarida aralashub yurmak"ka chaqiradi. Chunki "aralashub yurmasa, andag'i so'zlarni, odamlarni o'rganmoqqa bo'ladirki, kitob betlariga ko'chirib yozmoqqa materiyollarning eng asllari xalq orasidan olinadur". Cho'lpon bu gaplarni Ovro'pa adiblari tajribasiga tayanib aytadi: ular "o'zlarining yaxshi-yomon odatlari orasida yurubdular, so'ngra qo'llarig'a qalam olub, yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatub yozubdular". Demak, adiblarni hayotga chuqurroq kirib borishga undashdan ko'zlangan maqsad milliy turmushni teran tahlil etib, "yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatub" beruvchi haqqoniy adabiyotni yuzaga keltirish ekan. Cho'lponning bu masaladagi qarashi "Doktor

Muhammadiyor” hikoyasida ham aks etgan. Hikoya qahramoni Muhammadiyor Petrogradda ekanligida “Turkistonning madrasa shogirdlari hayotidan olub “Umrlik shogirdlar” nomli bir ro‘mon yozdi. Ro‘mon o‘n ikki juz’ bo‘lub, Turkistonda hanuz shundog‘ milliy maishatdan oling‘on katta ro‘mon chiqmag‘on edi... Bu ro‘mon shunday mohirona yozilg‘on ediki, madrasada qirq-ellik yil turganda ham shundog‘ yaxshi va shogirdlarning madrasada o‘qumay samovarlarda davr surayotganlarini yozmoq mumkin emas edi”. Muhammadiyor — Cho‘lpon xayolidagi ideal, demak, u ijodda “yaratuvchisi”ning adabiy-estetik qarashlariga muvofiq harakat qiladi. Yosh adib bu bilan qanoatlanmaydi, satr ostidagi izohda o‘z tili-dan fikrini ochiqroq anglatadi: “Ushbu ro‘mon (ya’ni, “Umrlik shogirdlar”. — D.Q.) xayoliy va yo‘qdir. Faqat 12 juz’ bo‘lmasun va 6 juz’ bo‘lmasun, 3 juz’ qilub bo‘lsa ham shul ismda

yuqorida ta'rif qiling'on ruhda bir ro'mon yozmaklarini muharrirlardan o'tinaman.

Xudo muharrirlarimizga g'ayrat bersun!"

Ko'ramizki, yosh Cho'lpon XX asr boshlaridagi Turkiston sharoitida adabiyotning beqiyos katta ahamiyatini ta'kidlarkan, tamomila yangi — realistik adabiyotni nazarda tutgan. Rus va Yevropa adabiyoti namunalari bilan yaxshi tanish yosh adib realistik adabiyot jozibasini, uning ijtimoiy hayot muammolarini anglash va anglatish imkoniyatlarini teran his qiladi, shunday adabiyot yaratish, uning yordamida millatni ma'rifatli qilish niyatlarini diliga tugadi. Cho'lponni adabiyot maydoniga yetaklagan ayni shu nekbin niyatlar uning butun ijodiy faoliyatini yurgizgan "motor", buyuk adib "ijodining qalbi" bo'lib qoldi.

Cho'lpon matbuotda e'lon qilgan ilk asarlardayoq millatning ma'naviy qashshoqlanishi va yurtining tutqunligidan yuragi pora, buyuk

armonlarini ommaga yuqtirib, uni mavjud holatdan chiqishga da'vat qilayotgan bezovta qalb egasi bor bo'yini ko'rsatib turadi. Uning matbuot yuzini ko'rgan ilk asari "Turkistonli qardoshlarimizga" deb nomlanuvchi she'rdir. To'g'ri, badiiyat nuqtayi nazaridan she'r ancha zaif, uslubiy g'alizliklar va vazndagi saktaliklar ko'rinadi. Shunga qaramay, u biz uchun yosh Cho'lpon ruhiyatini, orzu-intilishlarini yaqqol namoyon etishi bilan muhim. She'rda Cho'lpon, o'zi aytmoqchi, "millatning eng tanqid qilinaturg'on o'rinlari"ni ko'rishga intiladi, ularni tasvirlash orqali omma qarshisiga ulkan ko'zgu qo'yimoqchi bo'ladi, go'yo. She'rning boshlamasidayoq:

Ilm-u ma'rifat ham hunardan qoldi

mahrum bizni xalq,

Ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqon

bizni xalq, —

deya asosiy xulosani aytib, shu da'vo isbotiga,

sharhiga o'tadi. Shoirning fikrlarida hali yarq etgan originallik ko'rilmaydi, u aksariyat jadidlar kabi o'ylaydi, mavjud ahvolni jadidchilik nuqtai nazaridan baholaydi. Xususan, ahillikning yo'qligidan, millatning "boshiga shuncha kulfatlar kelsa ham ibrat olmasligi" dan, farzandiga ilm berishdan ko'ra ko'proq to'y-hashamga e'tibor beruvchi otalardan zorlanishlar davr jadid nashrlarida bot-bot takrorlanuvchi gaplar edi. Biroq, e'tibor berilsa, shu she'rdayoq Cho'lpon uchun ijtimoiy dardning shaxsiylanib ulgurganini sezish mumkin. Uning "bir kishi millatparast o'lsa deyurlar dahriy deb", "to'g'ri yo'lga boshlasang, egri xohlar bizni xalq" degan satrlarida tom ma'nodagi shaxsiy kechinmalar aks etgan. Zero, Cho'lponddek hissiyot kishisi jadidchilik g'oyalari bilan o'zi gurillab yongani holda yon-veridagilar qalbida ham shu olovni yoqmoqni niyat qilgan-u, o'zi kutmagan holda loqaydlik, befarqlikka to'qnash kelgan bo'lishi

haqiqatga yaqin. Shuning uchun she'rda biroz xafalik aralash alam, umidsizlanish kayfiyati zuhur qiladi. Bunday holatda o'z foydasini o'zi anglamagan kishilardan zada qalbning:

*Kes so'zingni, ey qalam, bas muncha
faryoding yetar,*

*Ko'p baqirsang og'zingga toshlarni otgay
bizni xalq, —*

deya o'ziga xitob etishi, alamli fig'oniga araz ohanglarining-da ilashib kelishi tabiiy ko'rinadi. O'ylashimizcha, she'rdagi kayfiyat bir-muncha vaqt yosh Cho'lpon dilida ustuvor bo'lgan. Shu bois oradan bir oylar o'tar-o'tmas chop etilgan "Qurboni jaholat" hikoyasida ham shu xil kayfiyat seziladi. Hikoya qahramoni obyektivlashmagan, ya'ni u bilan muallif orasidagi masofa doim ham saqlanmaydi, adib o'z o'y-fikrlarini uning tilidan aytadi. Cho'lponning o'zi kabi, hikoya qahramoni Eshmurodning qarashlari ham gazetalar

ta'sirida shakllangan. O'zi yashayotgan muhit sharoiti bilan kelisholmayotgan, bunday yashab bo'lmasligini teran his etgan yigitni na otasi, na tengdoshi Mo'minjon va na boshqalar tushunadi — u o'zini yakkalangan, shu bois ham muhit qarshisida juda ojiz sezadi. Shu ojizlik hissi Eshmurodning umidlarini so'ldiradi, ruhiga tushkunlik soladi: "G'azetaning qay yeriga qarasa turkistonli bechoralarning ilmsiz va hunarsiz holda maishat qilganlariga taassuf qilib yozadur. Yana diqqat... Yana xafalik... Bu bizning Turkistonimiz g'aflatdan uyg'onurmu? Yo'qmi? Biz bunday holda bo'lsak bitamiz... inqiroz topamiz... O'qug'anlarimizni kofirga hukm qilamiz. Ammo o'z bolalarimizning odati vahshiyonalariga deyar so'zimiz yo'qdir. Biz bu holda bo'lsak kishi qatoriga sanamaylar. Ovro'polilardan odati qabihalarini kasb qilurmiz. Ammo madaniyat, funun va sanoe'lariga ko'z yumub tururmiz. Biz odam

bo'lmaymiz... bitamiz... inqiroz bo'lamiz... Oh, jaholat!!! Bitduk, bitduk... O'lduk, tirilmaymiz". E'tibor bering: Eshmurodning o'ylaridagi ko'p o'rinlar "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ridagi qarashlar bilan mushtarak. Biroq she'r lirik qahramoni bilan hikoya qahramoni kayfiyatida yaqinlik bo'lgani holda, ular jiddiy farq qiladi. Eshmurodning ruhiy iztiroblari yolg'izligi, o'ziga hammaslaklar topolmagani-yu faoliyatsizligi tufayli chuqurlashadi. Qahramonidan farq qilaroq, Cho'lpon faol ijtimoiy harakatga kirishgan, o'zi bilan hammaslak kishilar-la yaqin aloqada edi. Shu uchun tushkunlik Cho'lpon ruhiyati uchun, garchi bot-bot takrorlanib tursa-da, epizodik hodisa, Eshmurod ruhiyatining esa turg'un sifatiga aylangan.

Cho'lpon «Qurboni jaholat»da qarshilantirish usulidan foydalanadi, ikkita holatni tasvirlagan holda ularga qahramon munosabatini ifodalash yoki bevosita muallif mushohadalari

orqali o'quvchiga ta'sir o'tkazish, unga nima-
nidir anglatish payida bo'ladi. Jumladan, ibrat
uchun yaratilgan Eshmurodni mo'jaz hiko-
ya davomida uch bora gazeta o'qish ustida
uchratamiz. Bir safar unga qarshi qo'yilgan
johil otasi: "Ey ahmaq! Gazitchilarning ishi —
hamma vaqt aqcha topmoq. Gazitning so'zini
to'g'risi bo'lmaydir, hamma yolg'on narsalar.
Bor, uydan "Jangnomayi Ahmad Zamji"ni
olub chiqub bizga o'qub ber!" — deya koyib
beradi. Otasining gazetadan ko'ra jangnoma
o'qishni afzal ko'rishi bejiz ta'kidlab ko'rsati-
layotgani yo'q. Hikoyada tasvirlangan bu epi-
zod "Adabiyot nadir?" maqolasidagi "agarda
"bayoz" va bema'ni bir-ikkita kitoblar bilan
qolsak" inqirozga uchraymiz degani bilan
hamohang, unda ham inqirozdan ogohlanti-
rish bor. Yoki Eshmurodning gazeta o'qishiga
e'tiroz qilmagani bilan, mingboshi qo'shnisi
saylov masalalari bilan bog'liq materiallarga

qiziqadi, xolos. Ya'ni, dunyo bilan ishi yo'q, o'zining manfaatidan boshqani o'ylamaydirgan mahalliy amaldorni tanqid qilishga jur'at qilmasa-da, shunga e'tiborni qaratib qo'ymoqda. Chamasi, yosh adib bunda o'zi — gazetalarni muntazam o'qib boradigan yigit — hayotda duch kelgan va duch kelib turgan holatlarni asarga shundoq ko'chiradi.

Eshmurodga qarshi qo'yilgan madrasa talabasi Mo'minjonning gap-so'zlari ham muallifni o'ylatib kelayotgan muammolarni taqdim etish uchun "ayttiriladi". Masalan, Eshmurodning "Rusiya maktablaridan biriga kirib o'qish" orzusiga qarshi u "O'rus maktabida o'qub nima foyda qilasiz? Mana, otangiz xotun olub beradirlar. O'zingiz rohat qilub madrasada o'qub yotasiz" deydi. Eshmurodning "madrasalarimizning ahvoli o'zingizg'a ma'lum-ku" degan e'tiroziga esa "O'qishini aytmayman, rohatlarini aytaman" deya izoh

beradi. Mo‘minjonni ertangi istiqbol qiziqtir-
maydi, unga madrasada “xohlasangiz o‘qiysiz,
xohlagan vaqtda rohat qilasiz” degan joyi xush
keladi. Shunisi borki, Cho‘lpon madrasalardagi
ahvol haqida, xususan, talabalarning o‘qishga
munosabati va ma‘naviy-axloqiy holat haqi-
da matbuotdagi chiqishlarida ham bong ur-
gan. Fikrimizcha, Cho‘lponning muhim ijti-
moiy muammolarni bir vaqtning o‘zida ham
publitsistik, ham nasriy, ham she‘riy asarlarida
ko‘tarayotgani bularning hammasiga millat-
ni uyg‘otish vositasi, o‘zini esa, eng avval,
ma‘rifatchi deb bilgani bilan izohlanadi.

“Doktor Muhammadiyor” hikoyasi “Tur-
kistonning qorong‘u go‘shasida, ... nomlik
uyezdni shaharda” degan so‘zlar bilan bosh-
lanadi. Sarlavha ostida esa muallif hikoyani
“xayoliy” deb tavsiflagan. Boshdayoq ko‘zga
tashlanuvchi bu ziddiyat hikoya tabiatini ochib
beradi: Cho‘lpon o‘zi bilgan real muhit fonida

ideal qahramonni — o'quvchi omma ibrat olishi lozim bo'lgan faol shaxsni harakatlantiradi. Ya'ni voqealar kechayotgan ijtimoiy muhit "Qurboni jaholat" dagiga monand, qahramoni esa, Eshmurodning tamom ziddi.

Cho'lpon elda Muhammadiyordek iqtidorli yoshlar ko'pligiga ishonadi, ularning ro'yobga chiqishiga moddiy qiyinchilik, jamiyat madaniy-ma'rifiy saviyasining pastligi — johillik imkon bermayotir deb hisoblaydi. Keng yurt-da Muhammadiyorning o'qishini davom ettirishiga yordam beruvchi biror kishi topilmagan paytda "shaharda katta to'ylar bo'lmakda, qimorbozlar, mastlar bir-birlarini pichoqlashub, inson qonlari "jaholat!!! jaholat!!!" deb oqmoqda edi!... Birdan-bir bo'lg'on shogirdlarga yordam jamiyati aqchasizlikdan to'xtag'an edi!" Yosh adib yurtida ko'rayotgani bu ahvolni Muhammadiyor Bokuga kelib ko'rgan ahvol bilan chog'ishtirishga undaydi o'quvchisini.



Muhammadiyor “Jamiyati xayriya” ga murojaat qilgach, “biroz a’zolar maslahat qilg‘onlaridan keyin, Muhammadiyorni oliy tahsiligacha jamiyat o‘z hisobidan o‘qutmoqqa qaror berdi”. Cho‘lpon shu o‘rinda “o‘z vatanidan va o‘z vatandoshlaridan yordam ko‘rmagan Muhammadiyor Boku yoshlarining himmatlari ila umidiga yetushdi” deb yozarkan, gaplarida havas va o‘kinch ohanglari bor. Biroq bu kayfiyat alamzadalikka yetaklamaydi, chunki Cho‘lpon ham, qahramoni Muhammadiyor ham, avvalo, “Vatan menga nima berdi?” deb o‘ylaydigan xudbin emas. Shu bois ham Cho‘lpon o‘qishini davom ettira boshlagan Muhammadiyor haqida “eng muqaddas amaliga yetdi. Endi oz bo‘lsa ham o‘zini xor qilgan vatan va vatandoshlariga xizmat qilajak edi” deb yozadi. Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishni muqaddas burch sanagan adib qahramonini ham shunga muvofiq talqin qiladi. Muhammadi-

yor qayerda bo'lmasin, mana shu muqaddas burchni unutmaydi, shu bois ham o'zi katta obro'-e'tibor topgan Bokuni-da qo'yib, vatani-ga "qo'ldan kelgan qadar xizmat qilmoq" uchun Turkistonga qaytadi. Uzoq yillik ayri-liqdan so'ng yurtiga qaytayotgan Muhamma-diyor o'zi ko'rgan mutaraqqiy mamlakatlar — Italiya, Fransiya, Shveytsariyadagi hayot bilan Turkiston turmushini qiyoslab iztirob chekadi. Endi u ko'nikib qolgan manzaralar o'rnida "pastgina hashak va loydan yasalgan binolar va onlarda safil bir holda yashagan musul-monlar! Topganin bachcha, uloq, ichkilikka ham domla-eshon va boylarga shaldiratub to'n va zarboblar bergan, boylar qo'lida bir qul hukmida bo'lib yurgan o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar" namoyon bo'ladilar. Chog'ishti-rish uning dilida umidsizlik hosil qiladi, chunki "ko'bni bilgan, ko'bni ko'rgan" Muhammadi-yorga "razolat va safolat" qo'ynida yasha-

yotgan xalqining “taraqqiy va tamaddunlarini ko‘rmak” nechog‘li og‘ir masala ekanligi ayon edi. Muhammadiyor yaxshi biladiki, ona yurtining “buyuk-buyuk, yashil-yashil tog‘lari Isveycharadan kam emas edi. Nahr-nahr oqib turg‘on suvlari va nima eksa shuni olsa bo‘ladurg‘on mahsuldor tuproqlari ila Amriqodan hech kamligi yo‘q edi”. Biroq, ayni paytda, bu yurt “ilmsiz boylari, johil “olim”lari, yolg‘on eshonlari va isrofning koni bo‘luv ila hech narsaga o‘xshamas edi”. Ko‘ramizki, Muhammadiyorning fikricha, Turkistonning taraqqiy etishi uchun barcha tabiiy imkoniyatlar muhayyo, biroq shu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishi mumkin va lozim bo‘lgan omma jaholat qo‘ynida, shu bois ham o‘z foydasini o‘zi anglaganicha yo‘q. Agar “xalq o‘z foydasini anglasa”, ya‘ni maorifga jiddiy e‘tibor bersa, Yevropa dorilfununlarida bolalarini o‘qitib zarur mutaxassislar yetishtirsa, ular “har biri

o'z vazifalarida turib ishlarin tartibi ila yurguzsalar va xalqimizning foydasini kuzatsalar, naqadar oliy va naqadar go'zal bo'lur edi!" Muhammadiyorning mazkur nurli xayollariga-da umidsizlik soya soladi, chunki "bunlarning bo'lishiga ko'zi yetmaydi" uning. Ko'rib turganimizdek, muallif qahramoni ongidagi umid va umidsizlik kurashini bir tomonga hal qilmaydi — masalani ochiq qoldiradi. Sababi — hikoya ustida ishlayotgan Cho'lponning o'zida shunday ziddiyat mavjudligi. Da'voimizni asoslash uchun bu hikoyadan sal ilgari yozilgan "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik" nomli maqolaga murojaat etamiz. Maqola mana bu gaplar bilan boshlanadi: "Butun Rusiyada manbatlik jihatidan vatanimiz Turkistonning ilg'orda ekanligi hammaga ma'lumdir. Va, hatto, butun dunyoda manbatlikning birinchisi Amriqo bo'lsa, bizning

Turkiston ham ikkinchi sanaladur”¹. Maqolani yozish paytida Cho‘lponni shunchalik unumdor yerlari bor xalqning nechun bunchalar xarob yashashi o‘yga toldirganki, keyincha xuddi shu narsa Muhammadiyorning o‘ylariga ko‘chadi. Dehqonlarning ayanchahvoli, muallifning fikricha, “ekin mashinalari” ning ishlatilmasligi va natijada mehnat samaradorligining kamligi tufaylidir. Jamiki illatlar ildizi johillikda deb bilgan Cho‘lpon dehqonlarning “ekin mashinalari” ishlatilmasligining sababini ham shunda ko‘radi, muammoning yechimi shundan kelib chiqadi: gazeta-jurnallar, dehqonlarga “shundog‘ foydalik narsalarni bildirsalar va tushuntirsalar, xalq turmushini yengillik tarafig‘a necha odum o‘tlatqon bo‘lur edilar”. Chamasi, Cho‘lpon avvaliga maqolani davom ettirmoqchi bo‘lgan emas, uning davomliligiga ishora

¹ Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg‘ona. — 1914. — 30 aprel.



ham yo'q. Biroq oradan ma'lum vaqt o'tib, shu nomda yana bir chiqish qiladiki, unga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir: "O'tgan maqolamda, — deb yozadi Cho'lpon, — dehqon qardoshlarimizdan hech birlarining ziroat mashinalari ishlatmaganliklarini yozgan edim. Maqolani yozgandan so'ngra qishloqlarda yurub, o'zum dehqonlar bilan ko'rushub fikr olishdim. Endi alarning fikrlarini o'ylag'on millatparvar kishi ko'zlaridan qonlik yoshlarini oquzmay mumkin emas"². Boshlanishdayoq muallif qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani seziladi. Dehqonlar bilan uchrashib, ularning dardlari bilan yaqindan tanishgan adib masalaga kengroq yondashish zarurligini chuqur his qiladi. Bu uchrashuvlar ilgari texnikadan foydalanmaslikni johillikdan deb bilgan Cho'lponga buning

² Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg'ona. — 1914. — 7 may.



boshqa, tubda yotuvchi jiddiy sabablarini ochib beradi: “Durust, ziroat mashinalari foydalik ekan, ammo pul kerak, bizning qo‘limizda bo‘lsa naqd tayyor pul yo‘qdur”, deya e‘tiroz bildiradilar unga. Cho‘lpon qishloqlarda yurib ko‘rgan, bilgan muammolarni, dehqonlarning dardlarini gazeta sahifalariga olib chiqadi: “Paxta eksak g‘o‘zapoyasigacha, bug‘doy eksak somonigacha qarzimiz badaliga xo‘jayinlarimiz boylarga olub borub beramiz. Yana ikkinchi ekinga beradurg‘on bo‘lub boylardan pul olub, qish ichi bola-chaqalarimiz ila avqot o‘tkaramiz... Chigitga pul deb borsak, xo‘jayinlar so‘kub, har turli haqoratlar ila yig‘im-terim vaqtida 100 so‘m qilub berishga o‘rtacha 40-50 so‘m pul beradurlar...” Qishloqda yurib ko‘rib, dehqonlardan eshitibilib Cho‘lpon o‘zini anchadan beri qiynab kelayotgan muammolarning hal etilishi oson emasligiga amin bo‘ldi. Ya‘ni hayot bilan

chuqurroq tanishishi barobari o'zining ko'proq gazeta-jurnallar ta'sirida shakllangan qarashlarini konkretlashtirish, aniqlashtirish ehtiyojini seza boshlaydi. Shunga urinish maqolaning uchinchi qismi (shu nomdagi uchinchi chiqish)da ham yaqqol ko'rinadi. Cho'lpon unda "Turkistonga taraqqiy davri kirgandan beri" gazetalarda "Ilm kerak! O'qimoq kerak!" deya qichqirib kelingani, shu qichqirish natijasi o'laroq "O'qumoq va o'qutmoq ishlari sekin bo'lsa ham oldinga bosgani", gazeta-jurnallar chop etilib turgani-yu "hamma shaharlarda "yangi usul" maktablar ochilganini" ta'kidlaydi³.

Biroq, boshqa bir muhim masala ham bor ki, u haqda "yozg'uchi ham, o'qug'uchi ham yo'q". Cho'lpon o'quvchilar e'tiborini, xususan, maslakdoshlar e'tiborini shu muhim ma-

³ Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg'ona. - 1914. - 30 aprel. - 30 may.

salaga qaratmoqchi bo'ladi: "hayhot, ziroat ishlarimiz tamom xarob! Xarob! Xarob!.. Oldinga bir odum otulgani hech ko'rugani yo'q. Bir tanob yer qishloqda ming so'mga chiqdi. Ammo yer dehqonda emas, millatga, xalq'ana bermay tek saqlab yotadurg'on boylarda. Oh, shul bizni tamom kuyduradur". Cho'lpon fikrlarini asoslash uchun o'n-o'n besh yillar ilgari maorif va ziroat ishlaridagi ahvolni qiyoslaydi: birinchisida oz bo'lsa-da oldinga siljish, ikkinchisida orqaga ketish bo'lganini ko'rsatadi. Cho'lpon mulohazalarini odatdagidek murojaat bilan yakunlaydi: "Yozayluk, qarindoshlar, ziroatdan! Yozayluk, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo'lsa, maktab ham bo'lur, ilm ham bo'lur. Dehqonlar boylar qo'lidan, qullik, asirlikdan qutulsa, hammasi bo'lur. Yozayluk, qarindoshlar!.." Ko'rinadiki, Cho'lpon ma'rifatchilik mavqeida turgani holda millatni taraqqiy ettirish uchun ilm-u irfon-

ning o'zi kifoya emasligi, buning uchun jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini anglay boshlagan. Endi Cho'lpon ma'rifat va iqtisod munosabatini o'zgacharoq ("alar bo'lsa, maktab ham bo'lur, ilm ham bo'lur") tushuna boshlaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun esa ijtimoiy munosabatlar ("dehqonlarni qullik, asirliqdan qutqarish")ni o'zgartirish, isloh qilish darkor.

Eng muhim nuqta, islohni qay yo'sin amalga oshirish masalasida Cho'lpon hali tugal bir fikrga ega emaski, bu narsa uning ongida ziddiyatli o'ylar kurashi, izlanish jarayoni kechayotganidan dalolatdir. Ayni shu jarayon Muhammadiyorning o'ylarida aks etgan. Muhammadiyor "xalq o'z foydasini anglasa" deya surgan xayollarining amalga oshishiga ham ishonolmaydi. Cho'lpon qahramoni ruhiyatidagi umidsizlikni izohlab yozadi: "Chunki borgan sari orqaga ketmaktamiz... taraqqiy asari ko'rulmasdan, bir taraqqiyga

o‘n tadanniy tayyor turadir”. Qahramonining nima uchun “ko‘zi yetmasligi” ni izohlamoqchi bo‘lgani holda Cho‘lpon nima uchun o‘zining ko‘zi yetmayotganini aytadi. Ya‘ni, shu o‘rinda adib qahramoni ruhiy holatini izohlayotganini, jumlar shunga mos bo‘lishi lozimligini unuttadi go‘yo. Aytmoqchimizki, yuqoridagi gap mazmunan uzoq vaqt yurtidan ayro yashagan odamga emas, ko‘proq shu yurt qozonida qaynayotgan kishiga — Cho‘lponning o‘ziga taalluqlidir.

Vujudini kemirib yotgan umidsizlig-u ongidagi keskin ziddiyatlarga qaramay, Muhammadiyor yurtiga qaytib ma‘rifatchilik harakatiga astoydil kirishadi: o‘zi yashagan kichkina shaharchada ulkan ishlarni amalga oshiradi. Zero, Cho‘lpon ibrat uchun yaratayotgan qahramonini o‘zgacha talqin qilolmaydi, chunki ongida kechayotgan ziddiyatli izlanishlar hali yechimini topmagani holda, o‘zi jadidchilik g‘oyalarida sobit turadi.

Jadidchilik harakati millatni ma'rifatli qilish, taraqqiy ettirish orqali ko'zlagan bosh maqsad yurt ozodligi, ISTIQLOL bo'lganligi ayon. Biroq o'sha davr sharoitida bu maqsadni oshkor etish, xususan, chor senzurasini ko'rigidan o'tuvchi nashrlarda istiqlool g'oyalari ochiq-oshkor ifodalash mumkin bo'lmagan hodisa edi. Shunga qaramay, gazeta-jurnal sahifalaridan bot-bot shu g'oyaning uchqunlari sachrab turardiki, bu uchqunlar omma yuragida shu buyuk g'oya olovini yoqishga qaratilgandi. Bu o'rinda biz, avvalo, keyinchalik millatchilik deb qoralangan millatparvarlik ruhini nazarda tutmoqdamiz.

Ma'rifat nuridan qalb ko'zi ochilgan, ko'p narsani anglagan Cho'lpon uchun har qadamda millatdoshlarining kamsitilishini, tahqirlanishini ko'rib turish, ularni himoya qilishga ojizligini tuyib yashash g'oyat og'ir edi. "Doktor Muhammadiyor"ning qator o'rinlarida shu

narsa aks ettirilgani ham fikrimizni dalillaydi: “qo‘rqinch manzaralar bunda andin ham ziyoda hukm surmoqda edi: bir musulmon birisi bilan urushub burni qonag‘on, bir musulmonni poyezd ma‘murlari tutib olub uradirlar... Muhammadiyor chidayolmadi. Poyezdning tashqarisiga chiqub” ketdi. Cho‘lponning bir-biri bilan mushtlashayotgan va, ayni paytda, o‘zgalar tarafidan kaltaklanayotgan musulmonlar haqida bir joyning o‘zida yozgani bejiz emas. Keyinroq adib Muhammadiyor yaratgan ro‘monda “ilmsiz boylarning poytaxt no‘mir-larinda til bilmay, ilm bilmay va ajnabiylar tarafidan o‘zlariga qiling‘on haqoratlar g‘oyat mohirona suratda ko‘rsatilg‘on”ligini yozadi. E’tibor bering-a, Cho‘lpon oddiy kishilarning kaltaklanishidan qancha iztirob cheksa, boylarning haqoratlanishidan ham shuncha iztirobga tushadi. Nega shunday? Axir “millatga iona bermay bosib yotadigan”, koni isrof

to'ylar qilgani holda ma'rifatga qayishay demaydigan, dehqonlarni xonavayron qilayotgan boylarni nafrat-la tanqid qilgan ham Cho'lpon edi-ku? Ha, shunday. Lekin gap millat masalasiga borib taqalganida, Cho'lpon boy-u kambag'al, yaxshi-yu yomonga ajratmaydi, bunday qilishga dil tubida ardoqlagani — milliy istiqlol g'oyasi yo'l bermaydi. Millatdoshlariga yetgan ziyon-zahmat adibning yuragiga nashtarday botadi: "Shaharda katta bir o't chiqub, musulmon mahallalaridan 6-7 mahalla kuyub, musulmonlar sohiblari ko'chalarida och-yalang'och qoldilar. O'rtada bir armani magazini kuygan bo'lsa ham, armani magazinini istraxavayt qildirganidan zarar oz edi. Oh, bizning musulmonlar-chi? Bizning musulmonlar istraxavaytning nimaligini bilmaydurlar edi. Bilganlari harom, deb qildurmagan edilar... Bu hollarni ko'rganda odam qandog' chidab turolsun? Qaysi vijdon bunga tahmil

etsun?..” Muhammadiyor ko‘zi bilan ko‘rilgan mazkur hol ham Cho‘lponning armonlari, iztiroblarini namoyon qiladi. Boshpanasiz qolgan musulmonlar qismatiga dildan achingani holda, adib ularning dinni mutaassiblarcha tushunishlariga kuyadi. Yurtdoshlarining yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitiga ko‘nikib ketolmayotgani, bundan begonalarning ustalik bilan foydalanayotganlarini ko‘rib o‘rtanadi. Axir, “bir armani, Qofqozning qorong‘u go‘shalaridan kelub, istansada do‘kon ochub, boy bo‘lub, ikki o‘g‘lini hukumat maktablarida” o‘qitsa-yu, shu yurt egalari mavjud imkoniyatlardan foydalana olmasalar! Yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida aql va tadbir bilan ish yuritish lozimligini yaxshi bilgan Cho‘lpon ziroat va dehqonchilik haqidagi maqolasida: “Har kuni gazetalarda “faloniyy sindi”, “Faloniyni vekseli protest bo‘ldi, do‘koni pechatlandi” deganga o‘xshash qo‘rqinchli

xabarlarni o'qib eshitmoqda va ko'rib bilmoqda bo'lsak ham, ammo ibratlanmaymiz. Sababini hech tekshirmaymiz. Yolg'uz "bozor kasod" deb o'taberamiz. Ammo bozorni kasodlig'iga nima sabab ekanligini tekshirmaymiz"⁴, — deb yozadi.

Cho'lpon millatdoshlarining iqtisodiy bilimlarni egallashlarini, ajnabiy korchalonlar bilan raqobat qila oladigan tadbirkor-u tujjorlar yetishishini orzulaydi. Biroq hayotda buning tamom aksi: yangicha sharoitda hamon eski-cha ishlayotgan, bilimlarini oshirish tugul elementar iqtisodiy bilimlarga ham ega bo'lmagan yurtdoshlarining tez-tez "sinishi", ajnabiy korchalonlarga, katta firmalarga "yem" bo'lib ketishi — bularning bari uni chinakam tashvishga soladi. Shu bois ham adib mazkur masalaga ayri-cha e'tibor beradi, maqolalari

⁴ Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg'ona. — 1914. — 30 aprel.

bilan ommaning e'tiborini unga jalb etmoqchi bo'ladi. "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar"⁵ maqolasida Cho'lpon dastlab yer masalasiga to'xtaladi: o'quvchilarni "temir yo'lining bormog'i ila tanobi 100 so'mlik yerlar, albatta, 1000 so'mga chiqishi"dan ogoh etadi, pulga qiziqib yer sotish nojoizligini ta'kidlaydi. Chunki "zamonamiz shundog' zamondurki, tirikchilik bilan raqobat qilmoqg'a, maishat zulmidan qutulmoqg'a qo'lda yer bo'lmoq kerakdur". Cho'lpon yersiz qolgan dehqonlar fojiasini yaxshi biladi, ularning safi kengaymasligini istaydi. Dehqonlar masalaning iqtisodiy jihatlarini tushuna olishiga ko'zi yetmaganmi, fikrini o'zgacha yo'l bilan singdirishga intiladi: "O'zimiz dunyoga yalang'och ko'yincha kelib, onamiz — vatanimiz, tuprog'imiz bizni boqar, rizq berar, katta qilar, dunyoda

⁵ Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar // Sadoyi Farg'ona. — 1914. — 6 iyun.

yashatar. Ul onani sotganlar, albatta, ne'matning qadrini bilmagan, kufroni ne'mat qilg'on bo'lurlarki, ko'b yomon gunohga botarlar".

Temir yo'llarning o'tkazilishi yurtni obod qilishi, chekka joylardagi hayotni jonlantirishi, "qishloqlarga ham madaniyat" olib kirishini o'ylab quvongani holda, Cho'lpon qishloqlilardan "Ovrupo mo'dasi"ga uchmaslikni o'tinadi: *"Ovruponing mo'dasi va buzuvchi axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!"* Ayni paytda: *"Ovruponing maktab, madrasa, ilm-fan, san'at, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni ozod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat-qulliqdan qutulturadur"*, — deya ta'kidlaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga ayri-ayri e'tibor bera boshlagan Cho'lpon o'zlashtirilishi lozim bo'lgan madaniyatlar sirasiga "hunar"ni kiritarkan, bu so'zga ko'p ma'no yuklayotgandek, uni keng ma'noda tu-

shunayotgandek ko‘rinadi bizga. Fikrimizcha, adib bu o‘rinda Yevropaning taraqqiyotda ilgarilab ketishiga imkon bergan qator omillar: ishlab chiqarish-u ish yuritish madaniyati, xo‘jalikni boshqarish usullari, qishloq xo‘jaligi-yu sanoat texnikasi va texnologiyasi kabilarni nazarda tutadi.

“Farg‘ona temir yo‘lida bir suyunadurg‘on ish” borki, u haqdagi gapni Cho‘lpon atayin maqolaning oxirgi qismiga qoldiradi. Adibni quvontirgan narsa Andijon stansiyasi qurilishini pudratchi sifatida mahalliy ishbi-larmon Abdulla Hamidullayevning olganidir. Cho‘lpon bilan suhbat chog‘ida pudratchining ukasi “shundog‘ katta muassasalarning foyda-sini ovrupolilar ko‘rub, ularning qo‘liga o‘tib ketayotganiga ichlari achishgan”idan qurilish-ni olishga jazm qilganlarini aytadi. Yosh adib o‘zi orzulagandek ajnabiy korchalonlar bilan raqobatlasha oladigan, muhimi, millat haqi-

da qayg'uradigan o'ziga maslakdosh odamni topadi. Ularning suhbatida yana bir muhim masala ko'tariladi: "istansalarga armani va ruslar kelub o'turmoqdadir. Bechora musulmonlar bo'lsa yerlarini oylik qilub bermoqdalar. Hozirda ijaraga bersalar, bora-bora oz pul bilan sotub ham qo'yarlar. Vagzalga yaqin yerlarda, istansa atrofida endi g'ayrimillat ko'runmoqqa boshladi". Suhbatdoshlarni millatdoshlarining eng obod va gavjum, demakki, tijorat ishlarini yurgizishga, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga keng imkoniyatlar beruvchi joylardan chetlashib qolayotganlari, turli yo'llar bilan chetlashtirilayotgani tashvishga soladi. E'tibor bering: na jadid ma'rifatchisi bo'lmish Cho'lponda va na kattagina sarmoyador bo'lmish suhbatdoshida masalaga tor "siniy manfaat" nuqtayi nazaridan yondashish kuza-tiladi. Chunki ularning har ikkisi ham asoratda

qolgan millat vakillari sifatida bir maqsadni — milliy istiqlolni ko‘zlaydilar.

Milliy istiqlol endigina shakllanayotgan milliy burjuaziya uchun keng imkoniyatlar ochishi muqarrar edi. Biroq, buni kommunistik mafkura tarafdorlari kabi “tor sinfiy manfaat” sifatida talqin qilish haqiqatga xiyonatdir. Sababki, Turkiston sharoitida shakllanayotgan milliy burjuaziya manfaatlari umumxalq manfaatlari ko‘p jihatdan mushtarak edi. Cho‘lpon Abdulla afandidek o‘z foydasi bilan birga millat manfaatini ham ko‘zlaydigan ishbi-larmonlarning ko‘payishi yurtini obod, ozod va ma‘mur qilishiga ishonadi. Maqola oxirida shu ishonch ruhi bilan yo‘g‘rilgan da‘vat yangraydi: “Abdulla afandidek namuna ko‘rsatg‘uchi fidokor savdogarlarimizdan ibrat olub, vatanimizning boyligini, tijoratimizning foydalarini chetlar cho‘ntagiga solmasdan va bermasdan, o‘z cho‘ntagimizda olub yurmakimiz kerakdur.

Bizga shundog' ishlarga kirishmoqg'a vaqt!.. Biz ham insonmiz, insondek yashayluk!..” Cho'lponning da'vatida izhor etilgan niyat — “vatan boyligini chetlarga bermaslik” mustamlaka sharoitida to'liq amalga oshishi mumkin emas. Albatta, buni Cho'lpon ham yaxshi biladi, lekin chor senzurasini imkon bergan darajada bo'lsa-da ardoqli orzusini ifodalaydi. Shu ma'noda, “biz ham insonmiz, insondek yashayluk!” degan nidonni “biz ham millatmiz, millatdek yashayluk!” tarzida tushunish to'g'riroq bo'ladi. Ko'ramizki, Cho'lpon yo'li bilan ozodlik, hurlik, milliy istiqlol g'oyasini ilgari suradi, zero, “insondek yashash” uning uchun, avvalo, ozod va hur yashashdir.

Cho'lponning adabiy-ijtimoiy faoliyati boshidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini lo'nda ifodalamoqchi bo'lsak, eng avval “istiqlol” va “taraqqiy” so'zlari xayolga qalqib chiqadi.

Zero, tanglayi “istiqlol” va “taraqqiy” deya ko‘tarilgan Cho‘lpon manglayiga shu ikki so‘z yurak qoni bilan bitilgandiki, ular shoirning hayoti davomidagi izlanishlari-yu aldanishlari, quvonchlari-yu armonlari, jozibasi-yu fojiasini, qo‘ying-chi, hayoti mazmunini belgilaydi.

Cho‘lpon faol qatnashib turgan jadid nashrlari 1915-yil o‘rtalariga kelib to‘xtab qolgani sabab, afsuski, uning to 1917-yil o‘rtalarigacha yozgan narsalari ma‘lum emas. Tanafusdan keyin matbuotdagi ilk chiqishlardan biri sifatida 1917-yil 10-avgustda “Hurriyat” gazetasida e‘lon qilingan “Qofqoziyaga ketgan Farg‘ona hay‘atidan” nomli ochiq xatni ko‘rsatish mumkin. Xat ostiga uch kishi imzo chekkan bo‘lsa-da, chamasi, uning asosiy muallifi Cho‘lpon: uslub shunga dalolat qiladi. Xat mazmunidan fevral inqilobidan so‘ng uning qaynoq ijtimoiy-siyosiy faoliyatga sho‘ng‘igani seziladi. Fevral inqilobidan keyin-

gi ijtimoiy-siyosiy vaziyat jadidlar ko'zlagan maqsadlarni amalga oshirish uchun birmuncha qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Buni teran anglagan jadidlarning ijtimoiy faolligi ortgan, Farg'ona vodiysida Turkiston muxtoriyatini ta'sis etish yo'lidagi harakatlar avj olgan edi. Cho'lponning kavkaz turklari bilan aloqa bog'lash uchun yuborilgan delegatsiya tarkibida ekanligi uning harakat faollaridan bo'lganini ko'rsatadi. Muallif "poyezdning lip-lip qimilashi, taq-taq taqillashi orasinda" yozgan xatning boshlanishida: "El qurultoyi ila shahar idoralari saylovi yaqin, balki shahar idoralari saylovi bo'lub turadir.

Baxtimiz, taqdirimiz, yozish-yozmishimiz qartaga qo'yiladir. Yo yutub, dunyoda tinch va hur yashash uchun asoslar qururmiz, yo yutqazub, dunyoda yana ilgarigiday siqilub-ezilishga mahkum bo'lurmiz", — deyiladi. Ko'rinadiki, Cho'lpon maslakdoshlari kabi

bo'lajak qurultoy va saylovlarga katta umid bog'laydi. Saylovchilar diqqatini bo'lajak qurultoy va saylovlarga jalb etarkan, ularning yurt, millat taqdirida nechog'li muhimligini alohida turtib ko'rsatadi. Cho'lponning bunga qadar yozgan asarlarida turkchilik g'oyasi ko'rilmagan bo'lsa, endi u maqsadga yetishning asosiy shartlaridan biri deb talqin etiladi: "Bunday bir zamonda so'nggisidan (*mustamlakadan*. — D.Q.) qutulish uchun har tarafda tarqalg'on turklarning, Turon bolalarining birlashmaktari lozim". Yuzaga kelgan sharoitda turkchilik g'oyasi nihoyatda dolzarblashgan: Rusiya imperiyasidagi turkiy xalqlarning erk uchun birlikda kurash boshlashi samarali bo'lishini jadidlar yaxshi bilganlar. Shu sabab g'oyaning dolzarbligi ikki-uch yil avvalgiga nisbatan beqiyos ortgan.

1917-yilning 26—29-noyabrida Qo'qonda to'plangan IV Turkiston umummusulmon

seyzdi Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi. Cho'lpon muxtoriyatni quvonch bilan qarshiladi. Muxtoriyat gimni deyishga arzigulik "Ozod turk bayrami" she'rida uning shu kunlardagi ko'tarinki ruhi, g'urur va iftixor tuyg'ulari barq urib turadi:

Ko'z oching, boqing har yon!

Qardoshlar qanday zamon!

Shodlikka to'ldi jahon!

Fido bu kunlarga jon!

Cho'lpon endi ezilgan, xo'rlangan xalq haqida emas, ozodlikka erishgan, o'zligini taniy boshlagan millat haqida kuylaydi. Shu bois ham baralla "Nomusli, vijdonlimiz!" deya oladi, uning tasavvurida erk deya chiqolgan, o'z haq-huquqlari himoyasiga yaragan millatgina nomusli va vijdonli sanalishi mumkin. Cho'lpon muxtoriyat ochgan istiqbolga quvonadi, endi "Taraqqiyga yo'l ochuq! Jaholatga yo'l yopuq!" bo'lishi, "yurakdan dog'lar-

ning, Vatan bog'idan zog'larning ketishi", bu yurtda "hurriyatning bayrog'-u adolatning o'rtoq" bo'lishiga ishonadi. Cho'lpon talqinida Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi na-faqat shu zaminda yashayotgan, balki butun dunyoga tarqab ketgan "Turon bolalari"ning umumiy bayrami. Zero, "Turk beshigi Turkiston" da vujudga kelgan muxtoriyat turkiy olamni, umuman, mazlum Sharqni uyg'otuvchi bong, barcha ezilgan millatlarni istiqlol uchun kurashga chorlovchi mayoq deb tushunadi muallif. Ahmad Zakiy Validiyning ma'lumot berishicha, Cho'lpon 1917-1918-yillarda bir guruh turkistonliklar bilan Orenburgga borib, u yerda Boshqirdiston hukumati raisining ko-tibi vazifasida ishlagan⁶. Albatta, bu turkchilik g'oyalarining, yuqoridagi xatda kuzatilgan qa-rashlarning amaldagi tatbiqi edi.

⁶ Karimov N. Cho'lpon. – Toshkent, 1991. 13-bet.



Katta umid bilan qaragani Turkiston muxtoriyati qonga botirilganda Cho'lpon Orenburgda edi. Mash'um 1918-yil fevralidagi Qo'qon voqealariga bevosita shohid bo'lmagan Cho'lpon muxtoriyatning mag'lubiyati sabablarini hissiyotga berilmay, xolis tahlil qilish imkoniga ega edi. Ehtimol, muxtoriyat g'oyasiga qo'shilmagan, uning amalga oshishi mumkin bo'lmagan ish deguvchilarning da'volarini idrok tarozusiga solib ko'rgandir? Yoki muxtoriyatning kuchga kirolmagani-yu mag'lubiyatida o'zi yaxshi bilgan ichki ziddiyatlar-u o'zaro kelishmovchiliklar oqibatini mulohaza qilgandir?.. Xullas, nima bo'lganda ham Cho'lpon — hayotini aniq maqsadga bag'ishlagan odam, shu maqsad sari intilish uning uchun hayot mazmuniga aylangan. Bas, u tarix-u taqdirning og'ir zarbasidan tez o'nglanishi, o'sha maqsadga yetishishning boshqa yo'llarini qidirishi lozim, bu — uning uchun ichki zaruriyat.

Cho'lpon hayotining bu sahifasini yopib, yangi sahifani ochishi va uni mazmunga to'latishi lozim. Ya'ni, Cho'lpon ijodining jadidchilik g'oyalari ta'siri ostida kechgan ilk davri ham 1918-yil bilan, aniqrog'i, Turkiston muxtoriyatining tugatilishi bilan chegaralanadi.

Cho'lpon she'riyati. Cho'lponning lirik merosi "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" nomli to'plamlarida, "O'zbek yosh shoirlari" nomli majmuada jam etilgan. Bundan tashqari, ko'plab asarlari vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilib borilgan. Cho'lpon hibsga olinganida uyidan qo'lyozmalari-yu she'r daftarlari, kundaliklari ham olib ketilgan bo'lib, ularning keyingi taqdiri hanuz ma'lum emas. Shoirning oxirgi o'n yil ichida yozib, matbuotda chiqara olmagan she'rlari shu tufayli bizga yetib kelgan emas. Cho'lponni yaqindan bilgan zamondoshlari uning o'sha og'ir vaqtlarda ham dilbar she'rlar bitganini

xotirlaydilar. Biroq "Soz" to'plamiga kirgan she'rlardan (bular, ma'lumki, ko'proq murosa uchun yozilgan edi) boshqa bu davrda yozilgan lirik asarlari bizga noma'lum. Cho'lponning 1937-yilda "Jo'r" nomli to'plam tartib bergani va nashriyotga topshirgani ma'lum, biroq muallif qamalgach, uning qo'lyozmasi ham izsiz yo'qolgan.

Maqolalaridan birida Cho'lpon: "Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Ko'ngil boshqa narsa — yangilik qidiradir..." deb yozgan edi. Ushbu izhor kishida "nahotki Cho'lpon buyuk iste'dodlarni mensimagan bo'lsa?" degan ishtiboh hosil qilishi mumkin. Yo'q, bu o'rindagi qoniqmaslikning ildizi boshqa. Gap shundaki, mumtoz she'riyatimizdagi ritmik imkoniyatlar, qat'iy she'riy shakl tizimlari asr boshida qaynab tosha boshlagan hayot shiddatiga ko'pda muvofiq kelmay

qoldi. Har bir davr she'riyati poetikasi, ritmik rang-barangligini o'sha davr belgilaydi. XX asr boshidagi o'zbek she'riyatiga davr shiddatiga mos ohanglar, shiddatli fikr va tuyg'ular ifodasiga mos shakllar zarur edi. Yangi she'riyatni yaratish yo'lida juda ko'p ijodkorlar izlandi, bu izlanishlar Cho'lpon she'riyatida mujassam ifodasini topdi. Shu bois Cho'lpon haqli ravishda novator shoir deb ataladi. Sirasi, uning "o'zbek adabiyotiga yangi to'n kiygizgan"⁷ zamondoshlari tomonidan ham e'tirof etilgan. Ayni paytda, hech bir ijodkor, hatto eng buyuk iste'dod egasi ham o'zini voyaga yetkazgan xalq madaniyati ta'siridan butkul uzilib ketolmaydi. Cho'lpon she'riyati ham quruq joyda yuzaga kelgani yo'q, ming yillar bilan o'lchanuvchi mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari unga asos bo'lib xizmat qildi. Cho'lpon she'rlari haqida fikr yuritganda

⁷ Vadud Mahmud. Cho'lponning «Buloqlar»i. Turkiston, 1923-yil, 10-dekabr.

shu ikki jihatni yodda tutish kerakki, aks holda ularning mazmun jilolarini ilg'ash mushkul bo'ladi. Buni Cho'lponning "Go'zal" she'ri misolida ko'rish mumkin.

She'rning lirik qahramoni — ko'ngliga yuksak va sof muhabbatni jo etgan, seva olganining o'zidanoq baxtiyorlik hissini tuya bilgan "oshiq". Uning qalbini zabt etgan malakning tengi yo'q — yuksaklik tushunchasining tajassumi bo'lmish oy-u quyoshdan-da baland. Ko'ramizki, "oshiq" va "ma'shuqa" obrazlari talqinidayoq iste'dod mumtoz adabiyotimizdan oziqlanayotgani seziladi. Zero, shu xil mubolag'alar — yorni oy-u quyoshga mengzash va ulardan ham ortiq qo'yish — mumtoz she'riyatimiz uchun odatiy edi. Biroq, bu o'rinda masalaning boshqa bir jihatiga ham ayricha diqqat qilish lozim. Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda "oshiq" va "yor" obrazlari ko'pincha ramziy-majoziy ma'nolarda qo'llanar

edi. Xo'sh, "Go'zal" she'rida ramziylik bormi, yo unda faqat zohiriy qatlamgina mavjudmi? O'z davrida A.Sa'diy Cho'lponni "simvolist" shoir deb atagan. Simvolistik she'rda tasvirdan bevosita o'sib chiqayotgan ma'no va ramziy ma'no bir-biriga xalaqit bermasligi, ramziy ma'noni ifodalash uchun narsa-hodisa mohiyati buzib tasvirlanmasligi hamda botiniy ma'no-ga ishora qilinmasligi talab etiladi. "Go'zal"-da tasvirlangan narsa — hislari to'lib-toshgan oshiqning yor bilan xayoliy muloqoti, u haqdagi o'ylari o'quvchining zohiriy mazmuni anglashi uchun kifoya. She'rning ramziy ma'nosini tushunish uchun esa uni "kontekst"larda olib ko'rishga to'g'ri keladi.

Cho'lpon she'rni 1919-yil fevralida — Boshqirdistondan yaqindagina qaytgan, milliy ozodlikka bog'lagan umidlarida bir bora aldan-gan, endi o'sha maqsadni diliga tukkan holda matbuotda ishlay boshlagan paytda yozgan.

Shoir dilidagi milliy istiqlol orzusi uning ijtimoiy-estetik idealiga aylangan. Shunga ko'ra, "ma'shuqa" Cho'lpon uchun milliy ozodlik ramzi, shu bois shoir uni boshqa hamma narsadan ustun qo'yadi. Kontekstni kengaytirib, Cho'lponning butun hayoti o'z ideali — milliy istiqlolga intilib yashashdan iborat bo'ldi degan to'xtamga kelaylik. U holda "Go'zal"ni tushunish uchun shoirning boshqa asarlarini ham e'tiborga olishga to'g'ri keladi.

1922-yilda yozilgan "Aldanish" she'ri bir qarashda go'zal yor ishqida aldangan oshiq iztiroblarining ifodasidek ko'rinadi. Cho'lpon "Besh yillik yonishim bir yil uchunmi? Erkalab o'tguvchi bir yel uchunmi?" degan o'rtovchi savollarni qo'yadi, "Sevgimning boqchasi xarobmi edi?" degan ishtibohlar keladi ko'ngliga. Yo'q, u sevgisi xomxayol bo'lganiga ishonolmaydi, chunki:

*Qo'limni tegizdim... odam edi-ku,
 Ko'zimda o'ynagan bir nur edi-ku,
 Sezgim-da sog', tetik, bardam edi-ku,
 Bo'yninga qo'l solgan bir hur edi-ku, —*

deb hisoblaydi. Lirik qahramon sevgisini bag'ishlagan “nedir” haqida “odam edi-ku” deyishi boshqa ma'nolarga ishora. Cho'lpon bejiz “besh yillik yonishlar” yelga uchgani haqida qayg'urayotgani yo'q. Zero, oshiqqa ma'shuqasi — istiqlolga yetish orzusi qo'l tegizsa bo'ladigan darajada real ko'ringan 1917-yildan “Aldanish” yozilgunga qadar aynan besh yil o'tgan edi. Ko'ramizki, bu o'ringa da zohiriy va botiniy qatlamlar ayri-cha yashaydi: ma'shuqasidan ayrilgan oshiq iztiroblari va u orqali yuzaga chiqayotgan milliy istiqlolga yetish umidining yo'qqa chiqishi ortidan kelgan iztirob-u alamlar.

Mulohazamizda biryoqlamalikka yo'l qo'yayotgandek ko'rinsak, ehtimol. Shuning daf-

iga yana bir she'rga to'xtalish maqsadga muvofiq. "Aldanish" yozilganidan so'ng oradan yetti-sakkiz oylar o'tib, Cho'lpon unga javob tarzida "Men ham sevaman" nomli she'rini yozadi. She'rning ilk satrlariyoq mulohazalarimiz to'g'ri yo'ldan borayotganiga dalolat qiladi:

Oydin kechalarda ko'kka ko'z tikib,

Yorug' yulduzlardan sevgi kutdim men...

Shoir "Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen" deb yozgan paytlarini eslaydi. Yaqqol ko'rinib turibdiki, "Men ham sevaman" she'ri bilan "Go'zal"ning ilk satrlari orasida mazmuniy munosabat mavjud. Shoir "Go'zal"ni yozgan paytlarini o'kinchga yo'g'rilgan sog'inch bilan eslaydi. Chunki u vaqtda ma'shuqaga, ya'ni istiqloлга yetishish umidi real ko'ringan, endi esa unga erishish imkoniyatlari tamom qo'ldan boy berilganini, har qancha og'ir bo'lsa-da,

tan olishga majbur. Endi shoirning ma'shuqasiga buyuk muhabbati dilida armon yarasi bo'lib qolishi, bot-bot yangilanib azoblarga solishi aniq. Biroq, hayot davom etmoqda, shunday ekan, shoir ham yashashi, muhabbatini kimgadir baxshida etishi zarur: "Endi har nafasda yana kuyamen, faqat Majnun bo'lib elni suyamen", — deya ovunadi u.

Ko'rinadiki, Cho'lponning ijodiy shakllanishida mumtoz she'riyatning ulkan va samarali ta'siri bor. Sharq she'riyatini yaxshi bilgan shoir uning ifoda usulidan so'z erkinligi cheklangan sharoitda mohirona foydalandi, salaflari qo'llagan "oshiq" va "ma'shuqa" timsollariga yangi ruh va mazmun berdi, yangicha jilolantira bildi. O'ylashimizcha, "oshiq" va "ma'shuqa" obrazlarining biz taklif etayotgan talqini Cho'lponning qator she'rlarini tushunishimiz uchun o'ziga xos kalit bo'lishi mumkin.

“Go‘zal”ning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi tomoni — barmoq vaznida yozilganidir. Albatta, Cho‘lpon bungacha ham barmoqda mashq qilgan, sirasi, unga zamondosh bo‘lgan ko‘p shoirlar ona tilimizga xosroq bu vaznga tez-tez murojaat qila boshlagan edilar. Biroq, “Go‘zal”dagi bu jihatga alohida to‘xtalishimizning boshqa bir sababi bor. Gap shundaki, she‘r yozilgan paytda Cho‘lpon “Chig‘atoy gurungi”da faol qatnasha boshlagan edi. Mazkur gurung esa she‘riyatimiz-u tilimizni arabiy-forsiy so‘zlardan imkon qadar tozalash, u vaqtlar ancha sezilarli bo‘lgan turk-totor tillari ta‘siridan saqlashni maqsad qilib qo‘ygan edi. She‘riyatimiz tilini soddalashtirish, uning vazn imkoniyatlarini kengaytirish borasida Cho‘lponning beqiyos xizmatlari bor. Buni Fitratning: “Barmoq vaznida she‘rni boshlab Cho‘lpon yozdimi yo men yozdimmi, esimda yo‘q. Faqat shunisi aniqki, “barmoq”

vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o‘zbek millatchisi men edim”⁸, — deganidan ham sezish mumkin. Zero, davrning yirik nazariyotchisi e’tirofi zamirida Cho‘lpon ijodiga berilgan yuksak baho botindir. Milliy madaniyatimiz rivojidagi mantiqiy izchillik shundaki, hazrati Navoiy turkiy tilning “teng huquqliligi” uchun kurashgan bo‘lsa, Fitrat va Cho‘lpon salaflari boshlagan ishni mantiqiy nihoyasiga yetkazishga intilganlar. Fitrat “barmoq”ning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslagan bo‘lsa, Cho‘lpon “Go‘zal”ga o‘xshash asarlari bilan barmoqda ham chinakamiga go‘zal she’rlar yozish mumkinligini ko‘rsatib berdi.

Cho‘lponning ko‘proq barmoq vaznida she’rlar yozganini aruzga salbiy munosabati yoki aruz texnikasini yaxshi egallamaganidan deb tushunmaslik lozim. Zero, agar shoir

⁸ Fitrat. Aruz haqida. — Toshkent, 1936. 21-bet

aruzda ham zamonasiga har jihatdan mos va o'zining g'oyaviy-badiiy niyatlariga muvofiq asarlar yozish mumkinligiga amin bo'lsa edi, o'ylaymizki, aruz texnikasini mukammal egalash uning uchun vaqt va mehnat masalasigina bo'lib qolur edi. Cho'lponning to'plamlarida oz bo'lsa-da aruzda yozilgan she'rlar ham uchrab turadiki, ular yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Uning "Qalandar ishq" nomli she'ri aruzda yozilganlari orasida eng mashhuri desak xato bo'lmaydi. U g'azal janrida, aruzning hazaj bahri, hazaji musammani solim vaznida yozilgan. "Qalandar ishq" 1920-yilda, Boku safari vaqtida yozilgan. She'rning bunday nomlanishi bejiz emas: avvalo, Cho'lpon 20-yillarda ayrim asarlariga "Qalandar" imzosini qo'ygan, ikkinchidan, sarlavha she'rda kuylangan muhabbatning ramziy ma'nolariga ishora qiladi. Cho'lponning hayot yo'li, ilgari aytganimizdek, umid va umidsizlik kurashidan iborat edi. Ha-

yotining bir bosqichida u umidvorlik hissidan ruhlanib, boshqa bir bosqichida esa umidsizlikdan ezilib yashagan. Cho'lpon Bokuga borgan paytida dilida umidvorlik hissi ustunroq edi, biroq o'zining Turkiston muxtoriyatiga bog'lagan umidlarida aldangan shoir endi ehtiyotkor bo'lib qolgan, umidvor chog'lari ham ba'zan umidsizlik kayfiyatiga taslim bo'lib turgan ko'rinadi. Chamasi, "Qalandar ishqi" she'ri ham shoir dilini o'tkinchi tushkunlik kayfiyati egallagan damlarda yozilgan. Shu bois ham ilk satrlardayoq "yo'lini yo'qotgan", xatarli yo'lda "toshdek qotgan" lirik qahramonga duch kelamiz. Shu xil kayfiyat qo'ynida ekan, shoir ortiga — o'tmishiga o'giriladi:

*Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik
to'lqini bordir,
Halokat borligin bilmay qulochni katta
otdim-ku.*

O'smirlik chog'idayoq millatni uyg'otish ishtiyoqida ijtimoiy faoliyat qo'yniga otilgan Cho'lpon "karashma dengizi" deganida qalbi tashna, ko'zi ochiq fidoyilarni o'ziga rom etgan go'zal — milliy istiqlol va taraqqiy orzusi jozibasini nazarda tutadi. Biroq bu jozib "karashma dengizi" da dolg'ali to'lqinlar ham bor, unda halokat topish hech gap emas. Turkiston muxtoriyatini tashkil qilishda jonbozlik qilgan Cho'lpon "halokat" deganda 1918-yil fevraldagi Qo'qon qonli voqealarni nazarda tutayotgandek. Fevral inqilobidan keyin faolligi kuchaygan Cho'lponning otasi bilan ziddiyatga borib qolganini zamondoshlari xotirlaydilar. Ehtimol, shoir shu dardning iztirobi bilan: "Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku", — deya o'kinch-la o'ylagandir? Turkiy xalqlar mustaqillik uchun birgalikda harakat qilsagina natijaga erishadi, deb hi-

soblagan Cho'lon Boshqirdistonda ham fido-yilik ko'rsatadi. Afsuski, shoirning bu nekbin niyati ro'yobga chiqmay, noumid yurtiga qaytdi, "qalandardek yurib dunyoni kezdim topmayin yorni" deyishi shundan. She'ning eng muvaffaqiyatli, san'atkorona mahorat bilan yozilgan bayti, shubhasiz, maqta'sidir:

*Muhabbat osmonida go'zal Cho'lon
edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga
botdim-ku.*

Maqta'ning botiniy ma'nosini anglash uchun Cho'lonning "ramzlar tili"ni bir qur eslab olish zarur. Uning qator she'rlarida ("Yurt yo'li", "Men qochmadim", "Aldanish" va b.) "yulduz" erk, ozodlik, milliy istiqlol ramzi bo'lib keladi. Oktabr inqilobidan keyinoq uni quyoshga mengzash urf bo'lgani ham ma'lum.

Qizig'i shuki, Cho'lpon yuqoridagi maqta'dan boshqa joyda "quyosh" ni shu ma'noda ishlatgan emas. Maqta'dagi taxallusning asl ma'nosigina ramziy ma'noga ishora qiladi: muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so'nishga majbur bo'ldiki, bu bilan Oktabr inqilobi mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinyapti.

"Tortishuv tongi" she'rida esa "quyosh" milliy ozodlik uchun kurash ramzi bo'lib kela-di. Shoir "botgan quyosh bulutlarning ostidan, Bosh ko'tarib chiqmoq uchun tirisha" yotganiga quvonadi, mazlumlarni birga quvonishga undab, "kishan yasovchi usta" larga tahdid qiladi. She'rdagi milliy ozodlik uchun kurashda qilinajak g'alabaga komil ishonch 1919-1920-yillarda Farg'ona vodiysida avj olgan "bosmachilik" harakati tug'dirgan umid bilan bog'liq. Biroq, "bosmachilik", Cho'lpon

kutganidek, tom ma'noda umummilliy ozodlik harakatiga aylana olmadi: yurtda bo'linish sodir bo'ldi — akaning ukaga, bolaning otaga qarshi maydonga chiqishi favqulodda bo'lmay qoldi. Tinimsiz urushlar-u dahshatli ochlik natijasida xalq abgor, yurt xarobazor bo'ldi. Cho'lpon gullagan vodiya xarob etilgani, obod qishloqlarni boyqushlar makon tutganini ko'rdi; tul qolgan juvonlar, yetim-yesir bolalar, farzand dog'ida jigari pora ota-onalar faryodlarini eshitdi; bosmachilikka qarshi kurash bahonasida yoppasiga qirg'in qilingan qishloqlar, qizil qo'shin sodir etgan xunrezliklar haqida eshitib bildi... Bularning bari shoir qalbini larzaga soladi, yurak qoni bilan yozgani — “Buzilgan o'lkaga” she'ri dunyoga keladi. 1920-yilda yozilgan bu she'r Cho'lpon ijodidagi eng dardchil va, ayni chog'da, da'vatkor asardir. Shoir she'rni o'lkaga murojaatdan boshlaydi:

*Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r
o'lka,*

*Nima uchun boshingda qora bulut
ko'lanka?*

She'r "Buloqlar" to'plamining "Sharq uchun" bo'limiga kiritilgan, matnda o'lka geografik jihatdan konkretlashtirilmasa-da, gap Farg'ona vodiysi haqida borayotgani yaqqol sezilib turadi. "Buzilgan o'lkaga" she'ri yuqorida ko'rganimiz "Go'zal" va "Qalandar ishqiqi" she'rlariga ko'p jihatdan o'xshagani holda, ulardan jiddiy farqlanadi ham. Farq shundaki, "Buzilgan o'lkaga" ramziy (simvolistik) she'r emas, ya'ni u zohiriy va botiniy ma'no qatlamlariga ajralmaydi. To'g'ri, unda ramziy timsollar, ko'chim sifatida qo'llangan ramzlar katta o'rin tutadi. Yuqorida keltirilgan ilk satrlardayoq bu narsa ko'rinadi: "qora bulut" mustamlakachilar ma'nosida qo'llanganini darhol sezib olamiz. Murojaatdan keyinoq "qora bulut" soya sol-

gan yurt timsolini chizishga o'tiladi. Cho'lpon talqinidagi yurt makoniy tushunchagina emas, yo'q, u his qila biladigan mavjudlik — azob, quvonch, nafrat hislari unga aslo yot emas. Bu yurtning yovlardan bezganligi shunchalarki, tog'lardan tushayotgan zilol suvlari “yig'lar kabi inglaylar”, “Yov... bormi? deb to'rt tarafni tinglaylar”; yovlarga nafrati shunchalarki, zilol buloqlari shifobaxsh suvlarini chaqirilmagan “qo'noqlar”dan qizg'onarlar. Cho'lpon yaratgan yurt timsolida mushfiq onalar — borlig'ini farzandlariga beg'araz bag'ishlay oladigan, yaxshi-yu yomon kunlarni farzand orqasidan ko'radigan... — tajassum topgan. She'ning boshlanishida “ko'm-ko'k o'tloqlari toptalgan”, farzandlari tomonidan o'z holiga tashlab qo'yilgan yurtning o'zigina bordek. Lirik qahramon o'sha sitamdiyda yurt bilan ro'baro' bo'ladi, uning kechagi va bugungi kunlarini qiyoslaydi. U hozirda g'anim toptayotgan qirlarga yoyilgan

poda-yu yilqilarni, tog'-toshlarda o'ynab yurgan qiz-juvonlarni eslaydi — ona-yurtining nechun shu holga tushganini anglashga intiladi. Ko'ksidagi dardlari bilan o'z holiga tashlab qo'yilgan ona timsolini yaratgan Cho'lpon birinchi qism nihoyasida noqobil farzandlarga xitob qiladi:

Ot minganda qushlar kabi uchguvchi,

Erkin-erkin havolarni quchguvchi,

Ot chopganda uchar qushni tutguvchi,

Uchar qushdek yosh yigitlar qayerda?

Tog' egasi — sor burgutlar qayerda?

Xitobdan seziladiki, Cho'lpon g'arib holga tashlab qo'yilgan ona-yurti "bo'm-bo'sh" tasvirlashi bejiz emas: shoirning e'tiqodicha, bu holga chidab turganlarning o'zi g'arib kimsalardir. Shu bois ikkinchi qismdagi beadaddek tuyuluvchi "nega, nima uchun" savollari, sirtidan ona-yurtga berilayotgandek ko'rinsa-da, aslida uning himoyasiga yaramayotgan noqobil farzandlarga, ularning vijdoniga qaratilgan:

*Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi
qo'llarga?*

*Nega tag'in tanlaringda qamchilarning
kulishi?*

*Nega sening turmushingda umidlarning
o'lishi?*

Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?

Yo'q, shoir yurtining qismatiga faqat qul-
lig-u xo'rlik bitilganiga ishonolmaydi, o'zga
qalblarning-da ishonmasligini istaydi. Dili-
ni pora etgan savollarni o'rtaga tashlarkan, u
ona-yurt bag'rini tig'lab, yaralarini yangilaydi
— buni o'zi ham his etadi. Uning ko'z oldida
mushfiq-u mehribon, ayni paytda, himoyasiz
va ojizligidan mushtipargina bo'lib ko'zda yosh
bilan turgan ONA — yurt timsoli gavdalana-
di. She'rning keyingi qismida endi lirik qahra-
mon Onani ovutishga intiladi:

*Kel, men senga qisqagina doston o'qiy,
Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.*

Kel, ko'zingning yoshlarini so'rib olay,

Kel, yarali tanlaringni ko'rib olay,

to'yib olay...

Biroq, ovutish onlarida ham uni "ag'darilgan, yiqilgan og'ir tojning zahar o'qi" hamon yurt — ONA ko'ksida ekanligi o'rtaydi. Yurt — ONA bag'rida turgani holda uni bag'riga olib ovutmoq istagan lirik qahramonning:

Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan

hur o'lka,

Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib

yotar ko'lanka?.. —

degan iztirobga yo'g'rilgan xitobi yana yurt — ONA ko'zidan "yoshlarini so'rib" olishga yaramayotgan farzandlarga qaratilgan da'vat bo'lib yangraydi. Zero, shoir "ag'darilgan, yiqilgan og'ir tojning zahar o'qi" — inqilobdan keyin ham davom etayotgan mustamlakachilik siyosati ONA-yurt bag'rini tig'layotganini chuqur his etadi, uni xalos etishni o'zining

va o'zgalarning burchi deb biladi. Ayni shu burchdorlik hissini butun vujudi bilan tuygani uchun ham shoir 1919–1921-yillarda yozgan aksar she'rlarda kurashning muqarrarligiga, bu yo'lda “yo bor bo'lish, yo yo'q bo'lish” gina mumkinligiga chuqur ishonch bo'rtib turadi.

She'rlarining birida Cho'lpon “men o'zlikdan ko'pdan beri uzilib, ko'plik ichra singib ketgan tanamen” deya e'tirof etgan edi. Darhaqiqat, adabiyotimizda ijtimoiy dardni Cho'lponchalik shaxsiylantira olgan shoirni topish mahol. Shundan bo'lsa kerak, shoirning aksar she'rlaridagi ommaga murojaatlari o'z qalbiga qaratilgani kabi, qalbiga murojaati ommaga qaratilgandir. Bu narsa, ayniqsa, shoirning 20-yillar boshlarida yozilgan she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Cho'lponning 1922-yilda yozilgan “Vijdon erki” she'ri:

Ay tutqinlar, ay ezilgan,

Ay qiynalgan yo'qsil ellar,

Ay umidsiz, ay chizilgan

Dor oldiga ... oppoq dillar! —

degan murojaat bilan boshlanadi. E'tibor berilsa, shoir murojaati qaratilgan doira "hamma" dan "oppoq dillar" ga tomon qisqarib borayotgani seziladi. Bu o'rinda, avvalo, "oppoq dillar" ning ma'nosini aniqlab olish darkor. Cho'lpon yurt ozodligi uchun kurashga kirganlarning ko'ngli boshqa har nedan, birinchi galda, shaxsiy manfaat-u shaxsiyatparastlikdan xoli, sof bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Uning "Oq deb... pok deb yurganlarda dil buzuq" ("Yotoqdan"), "Angladim: sevgida har ko'ngil buzuq» ("Men ham sevaman") kabi nolishlari shunga dalolat qiladi. Ya'ni, Cho'lpon "oppoq dillar" deya ulug' maqsadni ko'zlab maydonga chiqqan, she'r yozilgan paytlarda biroz umidsizlangan safdoshlariga murojaat qiladi. Shoir "bo'rilardan omon kutmak" oqil kishilarga xos emasligi, yagona to'g'ri yo'l «mone'larni hat-

lab o'tmak" ekanini ta'kidlarkan, avvalo, o'zi-
ni shunga ishontirishga, ko'nglida bosh ko'tara
boshlagan umidsizlikni bostirishga intiladi.
Yo'q, Cho'lpon zulmga mensimaslik bilan qa-
ramaydi, uning qudratli ekanini biladi. Biroq,
u qancha kuchli bo'lmasin:

Faqat erkin vijdonlarga

Ega bo'lmoq mumkin emas! —

deya qat'iy ishonadi. Shu e'tiqoddagi Cho'lpon
ko'ngil erkinligini daxlsiz qoldirishga intilib, uni
bo'g'ishga qaratilgan har qanday tajovuzlarga
qarshi kurashib yashadi. Shoirning umidlari
1922-yil avgustida yana bir kuchli zarbaga
uchraganida yaratilgan "Ko'ngil" she'ri ham
fikrimizni yorqin dalillay oladi. Cho'lponning
bu mashhur she'ri:

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen buncha sustlashding? —

degan dardli xitobdan boshlanadi. Shoir "ko'ngil» va "kishan" obrazlarini yonma-yon keltirarkan, ular mutlaqo zidligini ko'rsatishga intiladi. Zero, bu obrazlar ifodalayotgan "erkinlik" va "qullik" tushunchalarining o'zi bir-biriga tamom zid: biri bor joyda ikkinchisi o'limga mahkum. Nega shoir ko'ngil sustlashganidan noliydi? Chunki Cho'lpon uchun ko'ngil erkinligini ta'minlashning o'zigina tugal maqsad bo'lolmaydi, u ko'ngil olamini tashqi dunyodan butkul ayro tasavvur qilolmaydi. Uning qarashicha, muxtoriyat maqomida yashovchi ko'ngil o'zini to'ldirgan erk nasimlarini tashqi dunyoga yuborib turishi, undagi bo'g'iq havoni tozalashi lozim. Aks holda, chiqish imkonini topmagan nasimlar ko'ngilni vayron etadi. Shu xil e'tiqod kishisi bo'lgan shoir she'rning ikkinchi bandida tashqi dunyodagi ko'ngilsiz hollarni qalamga oladi:

*Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?*

Shoirning imoni komilki, "haqorat" va "tubanliklar"ga ko'nikish, befarqlik ko'ngilni o'ldiradi. Tashqi dunyodagi bu xil holatlarga nisbatan isyon qilmagan ko'ngil, oxir-oqibat, erkinlikdan ayriladi — o'ladi. Ko'ngil yashnashi uchun uning yonib yashashi, tashqi olamni ham o'zidan andoza olgan holda o'zgartirishga intilishi taqozo etiladi. Shoirning she'r nihoyasidagi dillarni titratuvchi o'tli xitobini ham shu yo'sin tushungimiz keladi:

*Tiriksen, o'lmagansen,
Sen-da odam, sen-da insonsen;
Kishan kiyma, bo'yin egma-
Ki, sen ham hur tug'ulg'onsen!..*

Bu satrlarda Cho'lpon ijodiga xos gumanizm bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shoir e'tiqodicha, inson yorug' dunyoga erkin yashash huquqi bilan keladi, baski, uning erkini bo'g'ishga hech

kim haqli emas. Shu o'rinda so'nggi satrlar ochayotgan yana bir ma'no qirrasiga diqqatni jalb etgimiz keladi. Cho'lpon "kishan kiyma, bo'yin egma" deya xitob qiladiki, "Nahot kishan kiyish-u bo'yin egish kishining ixtiyorida bo'lsa?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Ha, Cho'lpon aminki, kishi o'zi ixtiyorini bersagina "kishanlanishi" mumkin, xolos. Zero, bu o'rinda zohiriy erksizlik emas, ko'ngil erksizligi oldingi o'rindadir. Inson kishanda bo'lgani holda ham ichki erkinlikka ega bo'lishi, kishanlarni parchalash-u hayotini ko'ngildagidek qilishga intilib yashashi mumkindirki, buni erksizlik — qullig-u mute'lik deyishga kishining tili bormaydi.

Mazkur mulohazalarni Cho'lponning 1922-yilda yozilgan "Kishan" she'ri ham tasdiqlaydi. She'rning lirik qahramoni kishanga jonli mavjudotdek murojaat etarkan, o'quvchi tasavvurida kishan asta-sekin zulm timsoli

bo'lmish zolim devga aylanib boradi. Bu zulm timsolining mahkam tutuvchi "temir barmoqlari", "manhus va qizg'onmas quchog'i", doimo sergakligidan "yumilmas ko'zlari" bor. Ko'ramizki, Cho'lpon muayyan narsa — kishan asosida zulm timsolini yaratishda metaforaga tayanadi: kishan zanjirining halqalari "yumilmas ko'zlar"ga, qo'l-oyoqqa urilgan bandlarini — temir barmoqlarga o'xshatadi. Cho'lpon tasviridagi zulm timsoli "bashar tarixining har sahifasida qonli dog" qoldirgani yetmagandek, uning "yumilmas ko'zlari" elni qahr etadi, o'z asoratiga olishga chog'lanadi. Har qanday zulmga cheksiz nafrat bilan qarovchi lirik qahramon ozodlik umidi bilan yashaydi:

*Qilich birlan sening erkingda ko'p yillar
qolib ketdim...*

*Faqat har tebranishdan qutulishlikni
umid etdim.*

Ko'ramizki, kishan zanjirlarining har bir tebranishi uning tanasiga og'riq beribgina qolmaydi, ayni paytda, ko'nglida isyon ham qo'zg'aladi, kishandan qutulish umidi kuchayadi. Ya'ni, she'rning lirik qahramoni — jismi kishanband etilgani holda ruhi ozod kishi, Cho'lpon idealiga mos insondir. Aytish kerakki, she'rda, xususan, quyidagi misralarda Cho'lponning zamonasiga munosabati ham yorqin ifodasini topadi:

*Kishan, gavdamdagi dog'ing hanuz ham
bitgani yo'qdir,
Faqat butkul qutulmoqqa umidim
endi ortiqdir!..*

Tabiiyki, "gavdadagi dog'ning hanuz bitmagan"i haqida gap borarkan, demak, kishandan qutulgan. Ayni paytda, lirik qahramon butkul qutulish umidi bilan yashaydiki, bu bilan yurtning chor istibdodidan qutulgani holda hali tom ma'nodagi ozodlikka erishmagani

ta'kidlanadi. "Qalandar ishqi" she'ri kabi "Kishan" ham aruzning hazaj bahrida, hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun) vaznida yozilgandir. Biroq, "Qalandar ishqi" dan farqli o'laroq, "Kishan" g'azal janrida emas, masnaviy shaklida yozilgan. Cho'lponning aruzdagi mashqlari orasida "Galdir" she'ri maftunkor ohangi-yu tuyg'u-kechinmalar samimiyligi bilan kishini maftun etadi. She'r "Galdir" nomli xalq kuyiga solib yozilganki, shoirning o'zi buni satrosti izohida qayd etib qo'ygan. Cho'lponning "Uyqu", "Qo'shiq", "Qadoqchi qo'shig'i", "Chimmat qo'shig'i", "Raqamlik sevgi" kabi qator she'rlari ham muayyan kuyga moslab yozilganki, bu uning musiqa san'atiga muhabbatidan darak beradi. Shoir zamondoshlari xotiralarida ham bu narsa ta'kidlanadi. Xususan, mashhur bastakor Mutavakkil Burhonov bu haqda: "... u ham musiqani juda-juda yaxshi ko'rar ekan.

Shashmaqom sadolari yangraganda Cho'lpon sel bo'lib, butun vujudi quloqqa aylanganday, bir maromda chayqalib o'tirib tinglardi. Qulog'i musiqada-yu, xayollari junbushga kelib, nimalarnidir ko'z oldiga keltirayotgani sezilib turardi. U eshitgan kuylarini yurak-yurakdan, juda chuqur his qilardi. Buni komil ishonch bilan aytayotganimning boisi bor — ba'zan shunday bo'lardiki, Cho'lpon bir kuyni berilib tinglab, undan bag'oyat ta'sirlanib chiqib ketardi-da, ikki-uch kundan keyin shu kuyga moslab she'r yozib kelardi. Bu she'r esa avvalgi so'zlarga qaraganda kuyga o'n chandon mosroq bo'lardi. Cho'lponning "Galdir" degan she'ri bunga misol bo'la oladi. U xalq kuyiga moslab, dutor tilidan dutor tuyg'ularini izhor qiluvchi ajoyib lirik she'r yaratgan"⁹, — deb

⁹ Burhonov M. Cho'lpon haqida. // Kitobda: Cho'lpon. Adabiyot nadir? — Toshkent, 1994. 190-bet.

eslaydi. Biroq, aslida, she'r dutor tilidan emas, lirik qahramon tilidan yozilgandir:

*Men dutor birlan tug'ishgan ko'hna bir
devonaman,
Ul tug'ishqonim bilan bir o'tda doim
yonaman.*

She'rning lirik qahramoni ko'nglida birovlariga aytgudek izhori bor odamdirki, shu bois ham u "dutor bilan tug'ishqon"lik da'vo qila oladi. Lirik qahramon dili dardga to'la, "bechoralarga yor-u", "g'am ko'rmaganlardan bezor"dir. Uning dutorga yaqinligi shunchalarki, sezdirmaygina dutor torlariga yashirinib ola biladi:

*Men dutorning torlariga berkinib
olsam agar,
Pardalarning har biri bergay bo'lak
g'amdin xabar.*

Cho'lpon bu o'rinda mubolag'ali holatni tasvirlab, undan lirik qahramon tuygularini

ifodalashda unumli foydalanadi. Lirik qahramon torlarga yashirinish bilan go'yo dutorga qo'shilishib ketadi, endi ikkinchi bir obraz — cholg'uchi she'rda bo'y ko'rsatadi:

Pardalar uzra yurib turgan odam
barmoqlari,
Ko'kragimdan ko'p bosar, shundan bo'lur
tolmoqlari.
Ikki torni qaqshatib, barmoqlar o'tsa
to'xtamay,
G'amli un chiqmas o'shal torlarda
“galdir” yig'lamay.

Lirik qahramon cholg'uchiga nisbatan befarq emas, “ko'kragimdan ko'p bosar, shundan erur tolmoqlari” deyishi shundan. Bunda ham so'z o'yinlari-yu ma'noning turfa tovlanishlari jilva qiladi. Zero, “tolmoqlari” so'zini nafaqat barmoqlarga, cholg'uchiga oshiqligi-yu undan ko'rgan ozorlaridan to'lgan yurakka-da aloqador qilib tushunish imkoniyati bor.

Cho'lpon kuyning o'ziga xosligi, ijro texnikasi bilan bog'liq nozikliklardan unumli foydalana-di, ulardan ma'no chiqaradi: barmoqlar par-dani bosmay, to'xtamasdan o'tganlarida "ikki tor" qaqshab qoladi — oshiq ma'shuqasidan qancha ozor ko'rsa ham, bu xil ozorlarning davomli bo'lishini istaydi; oshiq ma'shuqasi-dan ozor chekmagani uchun ham "g'amli un" chiqmaydi, baski, "Galdir" kuyi ham chiq-may qoladi. Darvoqe, shu yo'sin yondashilsa, she'rdagi "galdir" so'zi faqat so'nggi bandda emas, ilgariroq ham iyhom san'atiga muvofiq ikki ma'noda teng qo'llangani anglashiladi. Ilk bor "Tong sirlari"da e'lon qilingan "Galdir" she'ri 1925-yilda Andijonda yozilgani mu-allif tomonidan qayd etib qo'yilgan. Shunga ko'ra, she'rning dunyoga kelishida Cho'lpon-ning musiqaga muhabbati bilan birga rafiqasi Solihaning ham muayyan ta'siri bo'lgan deyish mumkin. Zero, she'r yozilgan paytda shoir du-

tor mashqida mohir bo'lmishbu ayolga uylanib, baxtiyor turmush kechirayotgan edi. Xuddi "Kishan" kabi "Galdir" she'ri ham masnaviy shaklida yozilgan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda bu xil she'rlar, asosan, g'azal shaklida yozilguchi edi. Nima uchun Cho'lpon ayni shunday shaklni tanladi? Ehtimol, uni har bir bayt nihoyasidagi so'zning matla'ga qofiyadosh bo'lishini talab qiluvchi g'azal janridan maqbulroq sanagandir? Balki, zero, g'azal janrida shakl talabi bilan fikr-tuyg'ularni ifodalashdagi erkinlik ozmi-ko'pmi cheklanishi tayin. Ehtimol, Cho'lpon masnaviy shaklidagi qofiyaning rang-barangligi monotonlikka barham beradi deb hisoblagandir? Albatta, bu savollarga uzil-kesil javob berolmaymiz. Biroq, shunisi aniqki, adabiyotimizga yangi-yangi shakllarni dadil olib kirib, ularning milliy zaminda o'zlashib qolishi yo'lida astoydil harakat qilgan Cho'lpon mumtoz adabiyotimizdagi shakl-

lardan unumli foydalanish yo'llarini ham izlagan. Yuqorida ko'rilgan she'rlar shoirning shu yo'ldagi urinishlari natijasi bo'lsa ajab emas.

“Sezgi” she'rida ham shoirning shakl borasida jiddiy izlanganini kuzatish mumkin. Bu she'r ham “Galdir” kabi aruzning ramal bahrida, ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan:

*Bor-cha-lar-da so'l-di gul-lar, so'l-di
gul-lar — sez-ma-dim.*

*Qip-qi-zo-rib bot-di kun-lar, bot-di
kun-lar — sez-ma-dim.*

*Qay-da qol-di qon-li kin-lar, qon-li
kin-lar — sez-ma-dim. —*

*Soch-la-ring bog'-lab o-lib-dir, bog'-lab
o-lib-dir sez-gi-ni.*

E'tibor bering: har bir misraning hashv (ya'ni, o'rtadagi) ruknlari o'zaro qofiyadosh va, ayni paytda, dastlabki uch misrada hashvlar bir-biriga qofiyadoshbo'lib kelayotir. Cho'lpon

bu xil ohangdoshlikka ko'proq takrorlar hisobiga erishgan. Misralarning ayni shunday qofiyalanishi uchinchi bandda ham kuzatiladi. Tabiiyki, bu narsa she'rning ravon o'qilishini, xushohang jarang topishini ta'minlaydi. She'rning janri masalasiga kelsak, Cho'lpon murabba' janrining a-a-a-b, d-d-d-b, e-e-e-b tartibida qofiyalanuvchi shaklidan foydalangan. Ko'rilgan she'rlar Cho'lpon mumtoz adabiyotimizdagi she'riy shakllarni davr talabiga moslagan holda qayta jonlantirishni, faollashtirishni istagan, shu yo'lda ijodiy izlangan deyishga imkon beradi.

Hozirga qadar yuritgan mulohazalarimiz Cho'lponning 1927-yilga qadar yozgan she'rlariga taalluqli. Umrining oxirgi o'n yilida shoirning tuhmat-u malomatlarga nishon bo'lib, muttasil xavf-xatar ostida yashaganini ilgari aytdik. Uning bu davr matbuotida juda kam qatnashganini ham aytildiki, yozgan she'rlari

bizga, asosan, “Soz” to‘plami orqali tanishdir. Albatta, shoir mazkur to‘plamga kirita olmagan, ko‘nglini bo‘shatish uchun yozilgan she‘rlari ham bo‘lgandir, biroq qo‘lyozmalari ham o‘zi bilan birga qatag‘on qilinganidan, bu haqda dadil bir gap aytishdan o‘jizmiz. Shu o‘rinda aytish kerakki, “Soz” to‘plamiga tayan-gan holda ba‘zan Cho‘lponni zamonasozlikda ayblashlarga duch kelamizki, o‘ylashimizcha, bu adolatdan emas. Sababi, shoir ijodining bir tomoninigina bilgan holda unga tugal baho berish mumkin emas. Zero, Cho‘lpon “Soz” to‘plamiga majburiyat orqasida, o‘zi qurultoy-ga va‘da berganidek, “xatolarini ishchi-dehqon ko‘nglidan ketkazish” ni ko‘zlab yozgan she‘rla-rini kiritgan edi. Shu bois bu nav she‘rlarini to‘plam qilarkan, undagi ilk she‘rda Cho‘lpon o‘quvchisiga murojaat qilib:

Bir necha yil qantargach,

Yana oldim sozimni,



Endi aytib yig'lamas,

Ko'ngildagi rozimni, —

deb yozgan edi. O'ylashimizcha, Cho'lpon bu o'rinda o'quvchilariga aytmoqchi bo'lgan "ko'ngil rozi" borligi-yu, ularni aytish imkonidan mahrumligini bildiradi, buning uchun o'quvchisidan uzr so'raydi. Shu uzrxohlikdan so'nggina oktabr bergan "hurlikni" kuylovchi, kolxozdagi baxtiyor turmushni tasvirlovchi, "xalqlar otasi" Stalinni "oramizda eng yaxshimiz va eng saramiz" deya madh etuvchi... she'rlarini joylashtiradi. Cho'lpon shunga majbur edi, zero, uni millionlar kabi o'ylash va so'ylashga mahkum etgandilarki, millionlardan biri ekanligini har vaqt ko'rsatib turishi lozim edi.

Abdulhamid Cho'lpon haqli ravishda o'zbek she'riyatining yorqin yulduzi, yangi o'zbek she'riyatining tamal toshlarini qo'ygan ijodkor sanaladi. Shoirning ijodiy tajribalari she'riyatimizning mazmun va shakl tomondan

boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdiki, undan keyin adabiyot maydoniga kirib kelgan aksariyat yoshlar uchun bir maktab bo'lib xizmat qildi. Albatta, Cho'lponning barcha tajribalarini birddek muvaffaqiyatli deb bo'lmaganidek, hamma asarlarini ham durdona sanash xato. Biroq, Cho'lponning ijodiy izlanishlarini davom ettirish, ishonamizki, she'riyatimiz ravnaqi uchun katta foyda keltiradi. Zero, u tugatilmagan ishlarni tugatish, qiyomiga yetkazolmagan badiiy topilmalarini sayqallash yosh shoirlarimizning ma'naviy burchi hamdir. Cho'lpon she'riyatida xalqimizning yaqin o'tmishi xuddi ko'zgudagidek aks topganki, uning asarlarini o'qish o'tmishimizni, o'zligimizni tanishimizda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

“Kecha va kunduz”. 30-yillarning boshida Cho'lpon “Kecha va kunduz” roman-dilogiyasiga qo'l urdi. Uning birinchi qismi — “Kecha” romanini Cho'lpon Moskvada ekani-

da yozib tugatgani haqida ma'lumotlar bor, sirasi, adibning 1937-yil aprelida Yozuvchilar uyushmasida aytgan gaplardan ham shu narsa anglashilib turadi. Cho'lpon bilan Moskva-da bordi-keldi qilib turgan Y.Maqsudov va V.Rashidovlarning xotiralarida "Kecha"ning tugallangan vaqti turlicha ko'rsatiladi. Y.Maqsudov Cho'lpon bu romanni 1934-yilda tugatganini aytsa, V.Rashidov 1933-yil kuz oylarida adibning uyida mehmon bo'lganlarini eslab: "Bizga choy berib, qo'liga yozilgan varaqlarni olib, "Men "Kecha va kunduz" degan roman yozayotibman, hozir "Kecha"ni tugatdim. Yana bir ko'rib chiqishim qoldi, mana 3-4 sahifasini o'qib beray", deb qo'lidagi qo'l-yozmani o'qiy boshladi. O'qish bir joyga borganida, har uchovimizning ham miyamizda "bu roman dunyo yuzini ko'rarmikan?" degan savol ko'ndalang turardi. Biz Cho'lponning fikrini so'raganimizda, u sukutga ketib, "Bilmadim,

ruxsat berarmikanlar, yoki shuncha yozilgan she'rlarim singari qayerlarda qolib ketarmikan", deb qo'ydi"¹⁰, — deb yozadi. V.Rashidov xotiralarida Cho'lponning shu yil oxirlarida Moskva safarida bo'lgan A. Ikromovga roman qo'lyozmasini o'qish uchun berib yuborgani ham aytiladi. Chamasi, Cho'lpon "romanining dunyo yuzini ko'rish yo ko'rmasligi"ni ko'p jihatdan A.Ikromov fikriga ham bog'liqligini yaxshi his qilgan, uning qo'llab-quvvatlashini istagan. O'ylashimizcha, V.Rashidovning xotiralarida keltirilgan sana haqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Chunki "Kecha"ning O'zbekiston SSR tashkil topganining 10 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tanlovda qatnashgani va rag'batlantirilgani ham shunga dalolat qiladi. Tanlovning 1934-yilda o'tkazilgani e'tiborga olinsa, adib roman ustidagi ishni, V.Rashidov

¹⁰ Cho'lpon. Adabiyot nadir? — Toshkent, 1994. 211-212-betlar.

aytganidek, 1933-yil oxirlarida tugatgan bo'lishi kerak.

Asar dilogiya sifatida rejalashtirilgan bo'lib, uning birinchi qismi — “Kecha” romani 1936-yilda nashr etildi. “Kunduz”ning yozib tugatilgani-yu nashriyotga topshirilgani haqida gaplar yursa-da, ularni tasdiqlovchi hujjatlarga ega emasmiz. Faqat shunisi aniqki, Cho'lpon hibsga olinganida xatlangan narsalar orasida “hali tugallanmagan roman qo'lyozmasi” ham bo'lgan. O'sha qo'lyozmaning “Kunduz” romani bo'lishi ehtimoli haqiqatga ancha yaqin ko'rinadi. Afsuski, qo'lyozmaning keyingi taqdiri hozircha ma'lum emas. Shu bois adabiyotshunosligimizda “Kecha va kunduz”ni tugallanmagan asar sanashlozimmi yoki tugallangan debmi», degan masalada turlicha qarashlar bor.

Cho'lpon romanga qadar mashaqqatli ijodiy izlanishlar-u ma'naviy-ruhiy kolliziyalarga

boy yo'lni bosib o'tdi. Adabiyot maydoniga endigina qadam qo'ygan paytlaridan ko'ng-lida roman yozish orzusi bo'lgani uning ilk hikoyalari, maqolalarida sezilib turadi. "Dok-tor Muhammadiyor" dayoq qissabop, ehtimol-ki, romanbop material hikoyaga sig'dirilganki, natijada shu bilan bog'liq qusurlar yuzaga kel-gan. Tajribasi ancha ortgan paytda yozilgan "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" hikoyala-rida ham hayotni qamrov ko'lami hikoyadan ko'ra kengroq olingan. Bular Cho'lponning katta epik janrlarga o'tish uchun ijodiy-ruhiy jihatdan yetilib borayotganidan dalolat beradi. Romannavis sifatida shakllanishida Cho'lpon-ning dramaturgiya sohasidagi izlanishlari katta ahamiyatga ega. "Kecha"ning boshlanishida kuzatiluvchi syujetning dramatik shiddat-la rivojlanishi, personajlar ruhiyatini ochishda dramaga xos usullardan foydalanilgani, yuksak mahorat bilan yaratilgan dialoglar shuning da-

lilidir. Cho'lpon rus va Yevropa adabiyotining sara namunalarini tarjima qilarkan, ulardan ijodiy ta'sirlangani, o'rgangani ham, shubhasiz, buni o'zi ham e'tirof etgan. Xullas, "Kecha va kunduz" ga Cho'lponning she'riyat, nasr, dramaturgiya, tarjima sohalaridagi izlanishlari mahsuli, ularda erishgan yutuqlarini o'zida mujassam etgan asar deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Tarix yuzsizlarcha soxtalashtirilayotgan bir paytda hayoti qil ustida turgan Cho'lpon o'tmishga murojaat qildi, bolshevistik mafkura uchun muhim davr — inqilob arafasidagi Turkiston ijtimoiy voqeligini badiiy idrok etishga jazm etdi. Cho'lpon qarshisida ikkitagina yo'l bor edi:

birinchisi, o'tmishni bolshevistik mafkura-ga mos tarzda tasvirlab, soxta tarixga badiiy illyustratsiya yaratish va bu bilan "xatolarini ishchi-dehqon ko'nglidan" butkul ketkazish;

ikkinchisi, bosib o'tilgan yo'lga yigirma yil yuksakligidan yana bir bor nazar solib, yurti-

ning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lini badiiy idrok etish, o'zi anglagan haqiqatni boricha ko'rsatish va taqdirga tan berib, boshini kundaga qo'yish.

Cho'lpon bu yo'llarning qaysi biridan bordi? Chinakam iste'dod egasi sifatida u bularning hech biridan yurmadi — tamomila yangi yo'l ochishga intildi. Sodda qilib ayt-sak, "six ham kuymasin, kabob ham" qabilida yo'l tutdi, ayni shu narsa "Kecha" poetikasining o'ziga xosligini belgiladi. She'rlaridagi ko'rganimizdek, Cho'lpon "Kecha"da ham aytmoqchi bo'lganlarini asar qatiga singdirib yubordi. Roman imkoniyatlaridan foydalanib, adib ko'proq tasvir vositasida ifodaladi, ya'ni u tasvirladi xolos, mushohada yuritish-u xulosa chiqarishni o'quvchisiga havola qildi. Ikkinchi tomondan, u o'zi anglagan-u aytib bo'lmaydigan haqiqatlarni "pardalab" aytishga harakat qildi. Natijada asarning aktual mazmuni ikki

qatlarga ajraldi: biri — yuzadagisi, bolshevis-
tik mafkura og'usi bilan zaharlangan kitobxon
uchun, ikkinchisi — tubdagisi, mustaqil fikrlay
oladigan o'quvchi uchundir.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'ilishi mum-
kin: roman mazmunini bu tarzda tushunishga
asos bormi? Haqiqatan ham yozuvchi talqi-
ni shunaqami yo asarni shunday tushunishni
juda ham xohlovchi bugunning o'quvchisi, tan-
qidchisining talqinimi? Avvalo, ochiqchasiga
aytish mumkin bo'lmagan fikrni turli yo'llar —
ramz, majoz, kinoya, ishora kabilar orqali ifo-
dalash adabiyot uchun, umuman, nutqiy mulo-
qot uchun yangilik emas. Zero, hayotda fikrni
ochiq aytishga mone' bo'luvchi turli vaziyatlar-
ga duch kelinadiki, ular ijtimoiy munosabatlar
uchun universal xarakterga ega. Cho'lponning
ijodiy faoliyati esa, ma'lumki, asosan shunday
sharoitlarda kechgan.

Yurti o'tmishiga yigirma yil yuksakligidan
nazar solgan Cho'lpon "Kecha" romanida

Oktabr inqilobining amalga oshishi ijtimoiy-tarixiy zaruriyat emas, balki davr taloto'plarining hosilasi ekanligini, xalqini chinakam saodatga eltishi mumkin bo'lgan yo'l boshqa bo'lganini o'zi uchun yana bir karra tasdiqlab oldi-da, o'zi anglagan haqiqatni yo'lini qilib o'quvchisiga yetkazishga intildi. Adib o'sib kelayotgan avlod yuz berayotgan hodisalar mohiyatini anglashi, manqurtga aylanmasligini istaganki, uning uchun "chog'ishtirish orqali ma'rifat hosil qilish" imkonini yaratdi.

Tabiiyki, asar yaratilgan davrda bularga erishish oson emas, ko'zlangan maqsadga mos ifoda yo'sini, usul va vositalarni ishlab chiqish ham taqozo qilinar edi. Aytmoqchimizki, so'z erkinligi bo'g'ilgan muhitda sharoit "Kecha" romani poetikasini ko'p jihatdan belgilagandir. Zero, "yo'lini qilib" aytish ehtiyot chorasigina emas, asar dunyo yuzini ko'rishining zaruriy sharti ham edi. Roman haqida adib hayotlik vaqtida e'lon qilingan yagona taqrizda:

“Cho'lpon jadidlarni tasvirlaganida niqoblanadi, jadidlarga to'g'ridan-to'g'ri o'z tilidan xarakteristika bermasdan, bu vazifani asardagi kishilarga yuklaydi. Cho'lponning qahramonlari jadidlarni maqtab, ko'klarga ko'taradi” — degan ayb qo'yilgan. Darhaqiqat, romanda jadid Sharafiddin Xo'jayev paydo bo'lishi bilan Cho'lpon go'yo o'zini chetga oladi: bu epizodlar Miryoqub va Maryam kundaliklari orqali jonlantiriladi. Taqriz mualliflari haqdir-lar: Cho'lpon bu usulni muayyan maqsadni ko'zlab qo'llagan. Agar jadidlarga to'g'ri-dan-to'g'ri o'z tilidan xarakteristika berganida, uning uchun yagona yo'l — jadidlarni sho'ro yozuvchisi sifatida qoralashgina qolar, holbuki, adib jadidlar haqida o'quvchiga imkon qadar xolis ma'lumot berishni niyat qilgan. Ya'ni, Cho'lpon haqiqatan ham “niqoblangan”, bu so'z adib qo'llagan ifoda yo'sini mohiyati-ga mos. Shu bois biz ham ushbu atamani qo'llashni ma'qul ko'rdik. Faqat uni salbiy

ma'noda emas, "niqob"ni poetik vosita deb qabul qilamiz...

Cho'lponning "Kecha"da ifodalayotgan konsepsiyasi esa ko'p jihatdan Miryoqub obraziga bog'liqdir. Zero, ayni shu obraz vositasida adib o'zi asosiy hisoblagan ijtimoiy konfliktni badiiy talqin qiladi, milliy burjuaziyaning o'zini siyosiy kuch sifatida tanish jarayonini ko'rsatishga erishadi. Shu ma'noda, bizningcha, "Kecha"ning boshqahramoni Miryoqubdir.

Mulohazalarimizdan ayon bo'ldiki, muallif qarashlarini bitta-ikkita obraz emas, asar badiiy voqeligi — unda yaratilgan yaxlit dunyo obrazi ifodalar ekan. Shunga ko'ra, asardagi har qaysi obrazning bunda muayyan roli bor, zero, dunyo obrazi shu katta-kichik obrazlar birlikda hosil qilayotgan butunlikdir. "Kecha"dagi obrazlar tizimining shakllanishini, bizningcha, Quyosh sistemasiga mengzagan holda tushunishi qulayroq. Quyosh sistemasi

markazida Quyoshning o'zi turishi hamda o'z atrofidagi sayyoralar-u ularning tegrasidagi yo'ldoshlarning joylashishi-yu harakatini belgilashi sizga ma'lum. Shunga o'xshash, "Kecha"dagi obrazlar tizimi markazida ham o'z qarashlarini ifodalamoqchi bo'layotgan shaxs — muallif turadi. Ma'lumki, sayyoralar Quyoshning va o'zlarining tortish kuchlari nisbatiga, katta-kichikligiga bog'liq holda Quyosh atrofida joylashadilar, muayyan doirada aylanadilar. Bizningcha, "Kecha"ning yetakchi qahramonlari ham shunga monand joylashadilar: "quyosh"ga eng yaqin sayyora — Zebi, keyin Akbarali, keyin Miryoqub. Ma'lumki, katta sayyoralar Quyoshdan uzoqdadirlar, tortishish kuchlarining kattaligidan ular tizimdagi boshqa unsurlarning joylashishi-yu harakatini belgilashda, tizimning muvozanatini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shunga o'xshash, Miryoqub obrazi ham Akbaralining va Zebi-

ning taqdirini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda, eng chetdagi “orbita”da harakat qilgani uchun obrazlar tizimining butunligini ta‘minlashda yetakchilik qiladi.

Sayyoralar tegrasida yo‘ldoshlar bo‘lgani kabi, “Kecha”ning yetakchi qahramonlari tevaragida ham “yo‘ldosh” obrazlar harakatlanadi. Ular orasida tortishish kuchi kattaroqlari Quyoshga yaqinroq turgani va kattaroq doirada aylanganidek, “Kecha”dagi ayrim “yo‘ldosh” obrazlar ham o‘z holicha muhim ahamiyat kasb etadilar. Romandagi bu nav obrazlar sirasiga Razzoq so‘fi, noyib to‘ra, Poshshaxon va ilojsizlik tufayli romanda to‘laqonli xarakter darajasiga ko‘tarilmagan Sharafiddin Xo‘jayev kabilarni kiritish mumkin.

“Kecha”ning obrazlar tizimida yetakchi yoki “yo‘ldosh” personajlar bilan bog‘liq holda asar to‘qimasiga kiritilgan qator obrazlar ham borki, ular epik ko‘lamni kengaytirish orqali to‘laqonli

dunyo obrazini yaratishda sezilarli ahamiyatga ega. Aytaylik, Akbaralining insoniy fojiasini, uning xarakteriga xos qirralarni u yashayotgan muhit haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmasdan anglashimiz mahol. Shu ma'noda kundoshlar obrazlari uning oiladagi hayotidan, Hakimjon-u mahalliy amaldorlar obrazlari esa xizmat faoliyatidan xabardor qiladi. Yoki romandagi qumariqlik boylar, fuqaro, ruhoniylar obrazlari davr hayoti haqidagi tasavvurimizni sezilarli boyitadi. Ba'zan bu tipdagi obrazlar qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarga turtki berish (Miryoqubning Maryamga duch keliishi) yoki biron fikrda qat'iylashishlariga sabab bo'ladilarki, bu bilan bilvosita syujet rivojiga ham ta'sir ko'rsatadilar. Ba'zan esa "yo'ldosh" personaj tevaragida ma'no jihatidan birikkan epizodik obrazlar bir-birini to'ldirib, umumlashma obraz yaratishi mumkin. Masalan, sud chinovniklari-yu ishtirokchilari noyib to'ra

obrazi asosida mustamlakachilikning umumlashma obrazini yuzaga keltiradilar. Xuddi shunga o'xshash holni Razzoq so'fi obrazining Eshonbobo, Qumariq va jome' masjidlarining imomlari tomonidan to'ldirilishida ham kuzatish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarimiz "Kecha"ning obrazlar tizimi ancha mukammal shakllantirilganini ko'rsatadiki, asarning mazmun boyliklarini to'la o'zlashtirish uchun undagi hech bir, hatto eng kichik obrazni ham nazardan qochirmasligimiz taqozo qilinadi.

Cho'lpon Miryoqub timsolida asrimiz boshida yurtimizda qaror topa boshlagan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida yetishgan ishbilarmon kishilarga xos xususiyatlarni mujassamlashtirib, ularning yangi siyosiy kuch sifatida o'z-o'zini tanish jarayonini tasvirlashga intilgan. Qahramoni xarakteriga xos xususiyatlar roman voqealari boshlanishidan ancha

ilgari shakllangani uchun muallif ta'rifida uning o'tmishiga nazar tashlanadi: o'quvchi Miryoqub obrazi tadrijini 15 yillar ilgari boshlab tasavvur qilish imkoniga ega bo'ladi. Miryoqub "faqir odam panada" qabilida ishyuritadi: u amaldor emas, lekin o'zi ish yuritayotgan hudud boshqaruvida qo'li uzun; katta-katta oldi-sotdi ishlarini amalga oshiradi, buning natijasini esa "bir Xudo biladi-yu, Xudoning sevimli bandasi Miryoqub biladi", xolos. Miryoqub faoliyat boshlagan davrda shunday yo'l tutishga majbur edi. Chunki qaror topa boshlagan kapitalistik iqtisodiy munosabatlar tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar ochgani holda, mavjud byurokratik tuzum bunga muayyan to'siqlarni qo'ygan. Bu sharoitda u hukmdorlar himoyasiga muhtoj bo'lgan va kerakli odamlarni qo'lga olishga intilgan. Miryoqub noyib to'raning eski qo'lyozmalarga o'chligini bilib, shu orqali uning ko'nglini olgan; o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan bu

“do‘stlik” tufayli uning “biror joyga biror chaqa soliq to‘laganini, biror kasbga biror marta qizil qog‘oz (patent) olganini hech kim bilmaydi”. Ya‘ni, noyib to‘raga ozroq miqdorda sovg‘a-salom yoki naqdina berish bilan u kattagina foydani o‘ziga qoldirib kelgan. Ularning do‘stligi 15 yillardan beri davom qilishini e‘tiborga olsak, Miryoqubning qanchalar katta foyda ko‘rgani ravshan bo‘ladi-qoladi. Miryoqub kishilar bilan munosabatga kirisharkan, avvalo, undan keladigan foydani — o‘z manfaatini ko‘zlaydi. Shu bois Akbaralidagi nozik jihatlarni darrov fahmlaydi: keyincha buzoqdek yetaklab, sigirday sog‘sa bo‘ladigan odam ekanligini ilg‘aydi-da, noyib to‘ra bilan oshnaligidan foydalanib, uni mingboshi qilib qo‘yadi. Endi shu ikki amaldor qanotidagi Miryoqub ishini o‘zi xohlaganicha yuritaveradi...

Miryoqub dilida Maryamga nisbatan chin muhabbatning paydo bo‘lishi ruhiyatidagi zid-

diyatlarni kuchaytirib yuboradi. Qahramon ongida qo'zg'algan "tergovchi" va "oqlovchi" kurashi bilan shafqatsiz o'z-o'zini taftish etish jarayoni boshlanadi. Ilgari o'zini atrofida-gilar bilan qiyoslab, ulardan yaxshiroqman-ku deya ovunib yurgan Miryoqub endi o'zini aldasha-ga yaramay qoladi. U o'zining ko'p jihatdan Akbaralidan-da tubanligini, qilayotgan ishla-ri-yu bungacha kechirgan hayoti pastkashlik-dan o'zga narsa emasligini vijdoni oldida tan olishga majbur bo'ladi. Shu achchiq haqiqatni bo'yniga olgani holda o'tmishi bilan yashashi qiyin, shu bois ham o'zidan, qilgan gunohlari-dan qochib Qrim safariga o'tlanadi.

Miryoqub safarga chiqish oldida hayotini qayta qurishi zarurligiga, o'zi topingan kuch nuraganiga amin bo'lgan, biroq endi qanday yashash-u qaysi kuchga suyanishni bilmasdi. Ayni shu ijtimoiy-ma'naviy izlanish jarayoni boshlangan paytda u jadid savdogar Shara-

fiddin Xo‘jayev bilan uchrashadi. Miryoqub ayni paytda o‘zini qiynayotgan savollarga, o‘zi ilgari anglamagan, anglash zaruratini his qilmagan muammolarga u bilan muloqoti davomida javob topgandek bo‘ladi. Jadidlarning qarashlarida o‘zini qoniqtirmagan nuqtalarni ko‘rmagach, u avvaliga “jadid shu bo‘lsa, nega men jadid emasman” deya shoshadi. Keyin uning gaplarini “es tarozisiga solib” ko‘ra boshlaydi. Miryoqub o‘zi uchun xulosa chiqaradi: “Ilgari tinchgina pul topishni bilardim. Ota-bobolarimiz yurgan yo‘ldan yura berardim. Endi allakim chiqib, “ota-bobolarning yurgan yo‘li egri, to‘g‘ri yo‘l bu yoqda!” deydi. Odam ishonadigan qilib aytadi. Shu ikki yo‘ldan birini tanlab olishim kerak. Birdaniga ikki yo‘ldan yurib bo‘lmaydi”. Qahramonning bu gaplari uning endi pul topishgagina andarmon bo‘lib qolmasligi, atrofidagi hodisalarga faol munosabatda bo‘lishiga ishontiradi.

Modomiki, Miryoqub ongli tarzda muayyan ijtimoiy mavqeni egallashga harakat qilmoqdam, demak, uning ijtimoiy shaxs sifatida shakllanish jarayoni boshlandi. Qahramon o'zining ijtimoiy maqomini, uning jadidlar maqomiga mosligini anglasholdida, shu bois ham: "Jadidchilar to'g'risida gumonlarim yo'q emas. Lekin ko'nglim o'sha tomon moyil bo'lib qoldi... jadidlarning deganlarini boshqalarning deganlaridan ko'ra osonroq va tezroq anglayman", — deydi.

Yuqoridagi mulohazalarimiz Miryoqubning jadidchilik harakatiga qo'shilishi muqarrar ekanini, bu narsa uning uchun zaruratligini ko'rsatadi. "Kecha" nihoyasidagi Miryoqub — ijtimoiy harakat bo'sag'asidagi odam. Uning keyingi hayoti qanday kechadi? Afsuski, "Kunduz"ning yo'qolishi buni faqat taxmin qilish imkonini beradi. Taxminimizcha, Turkiston ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining tabiiy oqimini buzgan inqilob va undan keyingi

suronli yillar ziddiyatlarini Cho'lpon "Kunduz"da markaziy o'rin egallovchi Miryoqub ruhiyatidagi ziddiyatlar orqali ochib berishni rejalashtirgan, shu bois ham qahramonini mazkur rolga obdan tayyorlagan.

Akbaralining o'z mavqeiga real baho berishi, o'zining amali-yu chor hukumati nazdida sariq chaqalik ham qadri yo'qligini Miryoqub safardaligida anglay boshlaydi. Akbarali, albatta, avvalo, o'zini o'ylab, Qumariqda adolat qildi, bundan hayotida ilk bor qoniqish tuydi. Biroq shu birinchi va yagona mustaqil harakati unga g'oyat qimmatga tushdi. Amaldan ayri-lishning o'zi uning uchun o'limdek gap edi, tasodifiy o'lim esa uning hayotiga mantiqiy nuqta qo'ydi, xolos. Xullas, adibning Akbaraliga munosabatida, yuqorida ko'rdik, ziddiyatli tomonlar borki, u haqda fikr yuritganda shuni nazarda tutish lozim. Zero, Akbarali qo'lida mustamlakachilar qamchisini o'ynatgani holda, o'zi ham ularning qurbonidir.

“Kecha”ning eng dilbar qahramoni — Zebi haqida Cho'lpon ajib bir mehr bilan so'z yuritadiki, bu mehr beixtiyor o'quvchiga ham o'tadi — Zebi uning aziz kishisiga aylanib qoladi. Tabiiyki, bu narsa xarakter mohiyatini anglashga xalaqit berishi, o'quvchi munosabatining ko'proq mehr va achinish, ya'ni hissiy mushohada doirasida qolib ketishi ehtimoli ortadi. Holbuki, ajabtovur mehri bilan Zebini o'quvchi nazdida yuksaklarga chiqarib qo'ygan Cho'lpon uni sezdirmaygina pastga tushirgan-da, boshqalar orasiga singdirib yuborgan, Zebi mustaqil harakat qilishdan butkul mahrum qilingan: hatto taqdiri hal etilayotgan onlarda ham aralashishni xayoliga keltirmaydi, yig'lab-siqdashdan nariga o'tolmaydi. Uning mingboshiga uzatilgach “tutqanoq” dardiga muhtalo bo'lishi ham norozilikdan tug'ilgan isyon emas, muhitni norizo qilmagan holda mingboshidan qutulish ilinjidagi ojiz bir urinish, xolos. Muhimi, ota-onasini o'ylab,

muhit ta'siriga bo'yin egib mingboshiga taslim bo'lgach, u yangi hayotga ko'nishga chog'landi, o'zini ovutishga intiladi: "O'v, qiz bolaning peshonasi qursin! O'zi xohlab erga tegarmidi? Meni otam shu qari odamga berdi deb koyiyman: munga bermasa kimga berardi? O'zim suygan yigitga berarmidi? Tantiligi tutib ketsa Eshonboboga berib yuborardi... U mundan beshbattar!" Zebi taqdiriga tan bergan, endi orzu-armonlarini unutishga intilib, o'zini batamom yangi hayot zavqiga berganki, buni Poshshaxonning alamli va hasadli o'ylaridan anglashimiz qiyin emas. Ko'ramizki, Zebi tobora kundoshlar orasiga singib, ulardan biriga aylanib boradi. Tasavvur qiling: mingboshi o'lmaganida nima bo'lardi? O'limidan oldinoq mingboshi "kenja" sig'a nisbatan soviy boshlagan edi. Aro yo'lda qolgach, Zebi ham Sultonxon-u Poshshaxonlar yo'lidan bormas edi deb kafolat bera oladi? Zotan, Sultonxon-u Poshshaxonlar ham bir paytlar Zebiday

bokira-yu beg'ubor bo'lganlarini inkor etish ham mushkul.

Cho'lpon Razzoq so'fi timsolida e'tiqodining mohiyatiga ko'p-da yetmasdan, faqat "omin" deb turishgagina yaragan, bu bilan bid'at-u xurofotga yo'l ochib bergan omi xalq fojiasini mujassam etadi. Razzoq so'figa naf-ratini yashirmagani holda, adib mehnatkash bir odamning tekinxo'r kimsa-yu munofiq dindorga aylantirgan ijtimoiy-ruhiy omillarni ochib berishga intiladi. So'fi bundan ancha yillar ilgari akasi bilan yer talashib shaharga — qaynotasidan qolgan yerga kelib qolgan, hunari yo'qligidan Eshonboboga murid bo'lib, shuning ortidan tirikchilik o'tkazib keladi. Cho'lpon qahramoni o'tmishidan mazkur tafsi-lotni bejiz keltirgan emas, albatta. Deylik, so'fi o'zining oilasi bilan sovuq munosabatini "bu og'iz faqat Xudoning zikriga ochiladi" qabili-dagi da'vo bilan asoslamochi bo'ladi. Biroq Cho'lpon ziyrak o'quvchi tub sabablarni shu

ishora vositasida anglab olishiga umid qiladi. Gap shundaki, “ichkuyov” holatida yashagan so‘fi “xotin otasidan qolgan yerni pesh qilib boshimga chiqib olmasin” degan o‘yda boshdanoq Qurvonbibini tuproqqa teng tutgan, u bilan ochilib so‘zlashishdan qochgan — sir berib qo‘yishdan cho‘chigan, umrini Eshonboboning xonaqosida o‘tkazgan. Yoki uning tanballigini olaylik. So‘fi shaharga kelgan vaqtda hunarmandlarning bozori fabrika-zavod mahsulotlari raqobatiga dosh berolmaganidan ancha kasod holga kelgan, tirikchilik o‘tkazish, ish topish muammo bo‘lib qolgan edi. Shunday sharoitda u Eshonboboga murid bo‘lib tirikchilik o‘tkazib yurdiki, oqibat ishlamay tishlashga o‘rganib qoldi.

Razzoq so‘fini qizining to‘yi arafasidagi holatiga befarq qaraydi deyish qiyin. Uning xotiniga: “Men omi bo‘lsam, savodim bo‘lmasa, oq-qorani tanimasam, u kishi mulla bo‘lsa,

Xudoning buyrug'ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa... nima deyman?" — deyishidan unga ham oson emasligini, qiziga jabr qilayotgani-yu mingboshi uning tengi emasligini yaxshi bilishi anglashiladi, biroq Eshonboboning o'sha bir og'iz gapi Zebining taqdirini hal qilib bo'lgan. So'fining Zebi kelin bo'lib tushgandan keyin uning oldiga shahardan piyoda borishi, "oppoq soqoli bilan ko'z yoshlarini oqizib, yig'lashi", "Qizim, meni bunaqa sharmanda qiladigan bo'lsang, ilohim buyning tagingda qolsin, murodingga yetmagin..." deya qarg'ashlari vujudida "mutaassib dindor" bilan "ota" kurashayotganini, qahramonning ongida kechib, uni muqarrar halokatga olib keladigan yechimi yo'q konflikt — tragik holat yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Farzandini tiriklay yo'qotgan so'fining vujudidagi "ota" uni qutqarishga undaydi. Buning uchun esa pul kerak. So'fi Eshonbobodan madad kutganida piringing befarqligi uni adoyi

tamom qiladi. Razzoq soʻfi voqeani xotiniga yotigʻi bilan aytganida, uning koʻzlarida telbanish alomatlarini koʻradi — yorugʻ dunyoda yolgʻiz oʻzi soʻppayib qolayotganini anglaydi, vujudidagi “ota” mutlaq gʻolib keladi. Soʻfi Eshonboboning ham joniga, ham moliga qasd qiladiki, pulini olib qizini qutqarmoqchi boʻlgan boʻlsa, ehtimol. Choʻlpon mutelikning har qanday koʻrinishini, jumladan, eʼtiqod masalasidagi mutelikni ham keskin qoralaydi. Zero, shu xil mutelik roman voqeligida butun boshli bir oilaning fojiasini keltirib chiqaradi — Zebini Sibir surguniga joʻnatadi, Razzoq soʻfini qotilga aylantiradi, bechora Qurvonbini esdan mahrum etadi. Oʻzi eʼtiqod qilgan narsani durust anglamaslik esa, aytish kerakki, 30-yillarda jamiyatimizda odat tusiga kirgan edi. Yurtimizda marksizmga eʼtiqod qilganlari holda undan deyarli bexabar, faqat qoʻl koʻtarib maʼqullashgagina yaraydigan butun

boshli omma shakllanayozgan ediki, ular ham bilib-bilmay o'zlarining "eshonbobolariga" e'tiqod qilayotgandilar, asli. Bu illatning yurtimizga nechog'li qimmatga tushganini hozirda yaxshi bilamiz, albatta. Cho'lponning bezovta qalbi esa endigina kurtak holida bo'lgan bu illatning butun dahshatini oldindan ko'ra bilganki, asarda ayni shu masala ayricha bo'rtirilgandir.

Xullas, yangilikka o'ch adibnir bu romanni milliy romanchiligimiz rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asar edi. Afsuski, roman bir yil o'tmayoq taqiqqa uchragani, ikkinchi qismining izsiz yo'qolgani sabab bu narsa amalga oshmadi. Undan o'rganish mumkin va lozim ko'p jihatlar mavjudki, endilikda u yosh adiblar uchun tajriba maktabi bo'la oladi. Aytmoqchimizki, Cho'lponning romanchilik bobidagi ijodiy tajribalarini nihoyasiga yetkazish va u kutgan darajadan-da o'tkazish nosirlarimizning yosh avlodi zimmasidagi qarzdir.



HIKMATLI SO‘ZLARI



* * *

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir,
xalq kuchdir.

* * *

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

* * *

Faqat erkin vijdonlarga
Ega bo'lmoq mumkin emas!

* * *

Kishan kiyma,
Bo'yin egma-
Ki, sen ham hur tug'ulg'onsen!

* * *

Chechaklar o'sgusi ko'z yoshlarimdan,
Bo'g'inlar ungusi o'ylashlarimdan...

* * *

Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi...

* * *

Yo'q... o'lim yo'qdir!

Yolg'iz bir o'chib... bir so'nish bordir!

Bir o'chib... so'nib, yana yonish bor.

* * *

Bu vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lpon,
hozir o'l,
 Kimki qasd etsa anga kiysin pushaymondin
kafan.

* * *

Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'an
 vujudimizga, tanimizga suv-havo na qadar
 zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar
 ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar
 adabiyot kerakdir.

* * *

Adabiyot yashasa, millat yashar.

* * *

Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiysiga cholishmag'on va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur.

* * *

O'zi so'ng choqlariga qadar dars aytishini tashlamag'an bo'lsa-da, boshqa ko'b mudarrislar kabi shu vosita bilan Qorun xazinasini to'plamoq kabi yo'lg'a ham ketmagan edi.

* * *

Chig'atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg'an xizmati juda ulug'dir. Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir.

* * *

Ko'ngil boshqa narsa — yangilik qidiradir...

* * *

... nasr tilini tarashlashni men boshlab Gorkiydan o'rgandim. U, meningcha, o'zi ishlata-digan tilni juda yaxshi ko'radi, uni har qanday kamchilikdan ozoda holda ko'rmak istaydi.

* * *

Men o'zim har qanday nasriy asarda (roman, hikoya) go'zal tashbehlar va tabiat tasvirlarini yaxshi ko'raman. Gorkiyda bu narsalar ko'p emas, oz; uning shirinligi ham shundan. Ular juda ko'p bo'lib ketsa, rassomning san'at asari qolmaydi-da, bo'yoqchi (sirchi)ning andozasiz va san'atdan mahrum chizma chizig'i qoladi.

* * *

“Xalq teatrig'a yurmaydi” degan gap to'g'ri emas, xalq yuradir. Lokin teatr-tomosha is-mida bo'laturg'an qo'rchoq o'yunlarig'a, o'z

ruhiga yot bo'lg'an, unga anglashilmayturg'an tarjimalik "g'arbiy" asarlarga yurmasa haqqi bordir. Yo'q esa o'zini qiziqtiraturg'an zaminlarda yozilg'an va yaxshi o'ynalaturg'an tomoshalarg'a xalq yuradir.

* * *

... saroy mojarolarini ko'prak saroyning xos tarixchilari — "voqeanavislar" yozar edilar. Ularning ko'pchiligi quruq maxtovchidan iborat bo'lgani esa hammamizga ma'lum. Bir saroyning razolatlari faqat ikkinchi saroyning voqeanavisi jur'at qilib yoza olardi.

* * *

Podshohlarga til tegiza olmoq, ularni haq va haqiqat ustida biroz tanqid qila bilmak uchun Firdavsiy va Fuzuliy kabi saroydan yiroq turgan va yuksak shoirlik maqomig'a erishgan kishilar kerak edi. Tarixda bunday siymolar kam uchraydi.

* * *

O'zining sho'x ashullalari bilan xalq muhabbatini jalb etgan Halima majlisda, izdihom oldida yaxshi gapira olmasa, bunga nima deya olasiz? Hech nima! So'zlash san'ati boshqa, kuylash san'ati boshqa!

* * *

Har qanday ijodiy asarni ham ishlab pishitadilar. Shoirning she'ri, nasrchining roman yo hikoyasi, bastakorning cholg'u asari cholg'uchining bajarmasi, hatto zargarning chiroylik baldoq yo shokildasi, yo'nmachi ustaning nafis ishlangan yo'nmakor asari... bular hammasi ishlanish orqasida pishadi, yetiladi, qimmatli asar holiga keladi.

* * *

... mashhur Ilminskiy cho'qintirish siyosatining biri bo'lg'an mashhur Pobedonosufga yozg'an xatida: yerlik xalq orasidan bizning uchun foydaliq va hech bo'lmag'anda zararsiz

kishilar o'ruscha tilni tutulib, uyalib gapiraturg'an, o'ruscha yozg'anda birmuncha xato bilan yozaturg'an, bizning gubernato'rimizdan emas, hatto ustol boshlig'i (mirzo)mizdan ham qo'rqaturg'an kishilardir degan edi. Munga qarshi biz rus tili bilan emas, hatto Ovrupo madaniy millatlarining tili va bilimi bilan javob bersak, odam qatori yashamoqqa, albatta, haq qozonadirmiz.

* * *

Bitta mahkamaning ot-aravasini sotsaq, ikkita mahkamaning ikkita izvoshini ham otlari bilan sotub yuborsa, shularga ketaturg'an bir yillik xarajatni ham chirvonboyning qursi bilan hisoblab, shunga yarasha mablag'ni ajratub qo'ysaq: shu mablag'larning hammasini — shotirag'an chirvon qilib "Turkiston" gazetimi, "Farg'ona" mi, "Zarafsho" mi — uchchallasidan bittasining boshqarmasig'a topshirsa, bitta majmua chiqarub berishga unarlarmi ekan?

* * *

Tirnoq orasinda kir hamma vaqt bo'ladur, kavlagan sari chiqaberadur. Lekin odamlarning umri tirnoq orasidan kir kavlab o'tish uchungina tiklanmagan. Ayniqsa, Turkistonning oq-qoraning tanumag'an yerlik xalqiga bir narsa bildiraman degan muallimlar bir-birlarining ayblarini izlash bilan o'tkazarlar, bu jinoyat!

* * *

Birovni axloqsiz deb so'kmasdan, ilgari o'z vijdonimizga savol beraylikkim, bizning o'zimizda axloq bormi?

* * *

“Turkpravda” satrudnigi “Pomir” (Murg'ob)ni nimaga “O'rus Pomiri” (Russkiy Pamir) deb atadi ekan? Axir “Xitoy Pomiri”, “Ingliz Pomiri” degan atamalar bor, bu ham jug'rofiy bir “atama”da demakchilarmi? Unda Turkistonni ham “O'rus Turkistoni” (Russkiy

Turkestan) desunlar; "Xitoy Turkistoni" degan atama ham bor...

* * *

Muhajirlar qishloqlarining o'rtasida yarqirab ko'ringan haybatlik butxona qubbalari chor hukumatining niyat va idorasini juda ochiq ko'rsatadur.

E'TIROF

Cho'lpon o'rtoqning eng taqdirg'a loyiq bo'lg'an bir yeri, uning she'ri tasvirga boy bo'lib, ma'nosidan so'zi oz bo'lishi va shularni sof o'z tilida yozishidir.

Zarif Bashir

* * *

Cho'lpon she'rlari Shekspir jo'shqinligi bilan to'ladir. Cho'lpon oqko'ngilligi Shekspir samimiyligidan o'tadir. Cho'lpon bizda sevgi tangrisi, sezgi yaratg'uchisidir. Cho'lpon — Cho'lpondir.

Ahmad Shukriy

* * *

Cho'lpon chin ma'nosi bilan romantik bir yurak shoiri (lirik)dir. Lekin uning yuragi shaxsiy hissiyot bilan emas, ijtimoiy hissiyot bilan to'lg'an va qaynag'an bir yurakdir.

Abdurahmon Sa'diy

* * *

Cho'lponning mungacha chiqqan she'rlari bizga uni chin sinfiy inqilob shoiri emas, balki milliy inqilob shoiri etib tanitarlar.

Abdurahmon Sa'diy

* * *

Oktabr o'zgarishi qora tunimizning tongini otdirdi esa-da, bu mudhish kechaning badnom ko'lagalari hamon shoirning yuragini titratdilar va ul chor-nochor yig'laydir... Shu yig'i orasida barq urib ko'ringan erk quyoshi bu ko'zyoshlardan "chechaklar unqusini" so'zlaydi.

Abdulla Qodiriy

* * *

Biz ham Cho'lpondan qo'l torta olmaymiz. Cho'lpon yangi adabiyotda yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyoti o'rniga

bu kunning zavqiga yarasha, yoqimli, go'zal she'rlar o'rtaga chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'b sevadi. Undan ko'b go'zalliklar oladi. Cho'lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalari o'quvdi, voz kechilmaydi.

Oybek

* * *

Dunyodagi istagan adabiyotning iftixori bo'lishga arziydigan, har qanday madaniyatli jamiyatda Xudo ato etgan buyuk iste'dod egasi tarzida qabul qilinadigan, "ustoz", "muallim" sifatida e'zozlanishi mumkin bo'lgan Cho'lpon...

Ozod Sharafiddinov

* * *

Cho'lpon butun umrini xalqimizning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo'lib,

emin-erkin yashashi va milliy taraqqiyot yo'liga chiqib olishiga bag'ishlagan, milliy adabiyotimizni yuksak dovonga olib chiqqan ulug' shoir, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos va san'atshunos olim edi.

Naim Karimov

* * *

Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug'ullandi. She'r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima — hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o'zbek she'riyatining asoschisi bo'lib tarixga kirdi.

Begali Qosimov

* * *

Abdulhamid Cho'lpon she'riyati butun XX asr qadriyatlarini o'zida mujassam qildi. Uni olamshumul maqomga olib chiqqan omil — shoirning cheksiz ehtirosli gumanizmidir. Bu dunyodagi Insonning hasratlari, quvonchlari Shoir ijodining o'q tomiriga aylandi.

Rauf Parfi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Cho'lpon. — Toshkent: Fan, 1991.
2. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
3. Karimov Naim. Cho'lpon (Ma'rifiy roman). — Toshkent: Sharq, 2003.
4. Lutfiddinova X. Zebi, Zebona ("Kecha va kunduz". Cho'lponni o'qib...). — T.: O'zbekiston, 1993.
5. Sharafiddinov O. Cho'lpon. Shoir haqidagi rivoyatlar va haqiqatlar. — Toshkent: Cho'lpon, 1991.
6. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. — Toshkent: Yozuvchi, 1994.
7. Cho'lponning badiiy olami. — Toshkent: Fan, 1994.
8. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili ("Kecha va kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi). — Toshkent: Xazina, 1995.
9. Quronov D. Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi. — Toshkent: O'qituvchi, 1997.
10. Quronov D. Istiqlol dardi (Cho'lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadriji). — T.: Yangi asr avlodi, 2001
11. Ro'zimuhammad B. Cho'lpon — tong yulduzi demak... — Toshkent: O'qituvchi, 1997.
12. To'lakov I. Cho'lpon mahorati. — Andijon, 1997.
13. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. — Toshkent: Ma'naviyat, 2011.

14. Yo'ldoshev N. Cho'lpon she'riyatida inson va tabiat talqini. — Toshkent: Akadernashr, 2016.

15. Hojiyeva Sh. Cho'lpon va milliy she'riyatning yangilanishi. — Toshkent: Muharrir, 2019.

MUNDARIJA

Adib hayoti.....	4
Ijodi	29
Hikmatli so'zlari.....	141
E'tirof.....	151
Foydalanilgan adabiyotlar.....	157

Ilmiy-ommabop nashr

**ABDULHAMID
CHO'LPON**

Muharrir Saidmurod Xolbekov
Badiiy muharrir Muhammadxon Yusupov
Texnik muharrir Dilmurod Jalilov
Sahifalovchi Axtam Ro'zimurotov
Musahhih Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$. AcademyUz garniturası.
Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.
Adadi 23 000 nusxa. 05-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

"HILOL NASHR" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



UZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI

BER QO'LINGNI SO'NG MARTABA,
YOLG'IZ QOLGAN O'KSUKMAN.
OT O'QINGNI SO'NG MARTABA,
ALAM KUTGAN KO'KSIMGA...

ABDULHAMID
Chelpon

ISBN: 978-9943-6682-4-9



9 789943 668249